2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 17 (1078), 2024-yil 24-yanvar, chorshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING XITOYGA TASHRIFI BOSHLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rafiqasi bilan birga davlat tashrifi bilan Xitoy Xalq Respublikasiga keldi.

Ikki davlat bayroqlari bilan bezatilgan “Shoudu” xalqaro aeroportida oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tortdi.

Davlatimiz rahbarini XXR madaniyat va turizm vaziri Sun Yeli va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Tashrif dasturiga muvofiq 24-yanvar kuni O‘zbekiston yetakchisi XXR Raisi Si Szinpin bilan muzokaralar hamda Xitoyning rasmiy shaxslari va ishbilarmon doiralari vakillari bilan qator ikki tomonlama uchrashuvlar o‘tkazadi.

Kun tartibidan O‘zbekiston bilan Xitoy o‘rtasidagi har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va keng ko‘lamli amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari o‘rin olgan.

O‘zA

Xalqaro hamkorlik

O‘zbekiston – Xitoy: SIYOSIY DIPLOMATIK ALOQALAR – YANGI DAVRNING MUHIM PLATFORMASI

Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning taklifiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 23-25-yanvar kunlari bo‘lib o‘tadigan davlat tashrifi doirasida Pekin shahrida oliy darajadagi muzokaralar hamda qator ikki tomonlama uchrashuvlar rejalashtirilgan. Kun tartibidan davlatlarimiz o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari o‘rin olgan.

Qayd etish kerakki, O‘zbekistonning ochiq, do‘stona, tinchlikparvar siyosatida XXR bilan o‘zaro munosabatlar muhim ahamiyatga ega. Bu hamkorlik aloqalari har tomonlama strategik sheriklik asosida rivojlanib, doimiy takomillashib bormoqda. Ikki va ko‘p tomonlama siyosiy diplomatik aloqalarning mohiyati va yo‘nalishlarini o‘zaro manfaatdorlik, mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi istiqbolli hamkorlikka doir masala va muammolarni hal etishdagi tizimli yondashuvlarda ko‘rish mumkin. Bu jarayon bugun yangi davrning keng qamrovli strategik sherikchilik yo‘nalishlari va vazifalaridan kelib chiqmoqda.

Davomi 3-betda

Taraqqiyot yo‘li

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH do‘stona munosabatlarni mustahkamlash asosi

Davlatimiz rahbarining 2024-yildagi ilk davlat tashrifi aynan Xitoyga amalga oshirilishida ham ramziy ma’no bor. Ekspertlar fikriga ko‘ra, ushbu tashrif o‘zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish, ikki davlat munosabatlari tarixida o‘ziga xos yangi sahifani ochishga xizmat qiladi.

Davomi 3-betda

Nuqtayi nazar



O‘ZGARISH BOR

LEKIN FOYDALANILMAYOTGAN IMKONIYATLAR HAM YETARLI

Yil boshi, xususan, yanvar oyining uchinchi haftasi mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga daxldor tashabbus va tadbirlarga boy bo‘ldi. Prezidentimiz raisligida o‘tkazilgan ikki tadbir — makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash hamda 2024-yilda investitsiya, eksport va sanoat sohalaridagi ustuvor vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishlarida ko‘tarilgan masalalar, oldinga qo‘yilgan maqsadlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ijrosini nafaqat yil davomida ta’minlashga, balki O‘zbekistonning yaqin istiqboliga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Avvalo, shuni ta’kidlash kerakki, har ikkala yig‘ilish tahliliy hamda tanqidiy ruhda o‘tdi. To‘g‘ri, bugun mamlakatimiz iqtisodiyotida ijobiy o‘zgarishlar, o‘sish bor. Lekin, shu bilan birga, hali qilinishi lozim bo‘lgan ishlar, to‘liq va to‘g‘ri foydalanilmayotgan imkoniyatlar ham kam emas. Davlatimiz rahbari ayni shu imkoniyatlarni ishga solish lozimligini ko‘p takrorladi, bu borada tegishli mas’ullar zimmasiga muhim vazifalar qo‘ydi.

Yutuqlar o‘zimizniki, ulardan keladigan naf chetga ketib qolmaydi. Ulardan havolanib ketish ham yaramaydi. Aksincha, yangi maqsadlarga intilish kerak. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar o‘zining izchilligi, butun mazmun-mohiyati bilan ayni shunga qaratilgani diqqatga sazovor.

Davomi 4-betda

Burch

YUKSAK AXLOQIY FAZILATLARGA EGA YOSHLAR YOT G‘OYALAR DOMIGA TUSHIB QOLMAYDI

Mamlakatimizdagi ma’naviy tiklanishning hozirgi bosqichida jamiyatimizni, xususan, o‘quvchi yoshlarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalashning ahamiyati tobora oshmoqda. Shu bois, jamiyat hayotida ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan yangilash, isloh qilish — O‘zbekistonning buyuk kelajagini ta’minlashning bosh shartlaridan biri, deb e’tirof etilmoqda. Jumladan, ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish bu borada olib borilayotgan islohotlarni mustahkamlashda asosiy omillardan biridir.

Davomi 5-betda

Munosabat

ISHBILARMONLIK MUHITINI YARATISHDA INVESTITSIYANING O‘RNI BEQIYOS

O‘tgan yili 2022-yildagiga nisbatan 1,8 barobar ko‘p investitsiya jalb etildi. Bu mamlakatimizda keyingi yillarda investitsiya muhitining jozibadorligini yanada oshirish, hududlarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, yangi tashabbus va loyihalarni moliyalashtirish, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar samarasi, albatta.

Iqtisodiyotni barqaror taraqqiy ettirishda investitsiyaning ahamiyati beqiyos. Sababi, bu ko‘plab soha va tarmoqlar hamda hududlarga yangi texnologiyalar, ilg‘or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib kelishi va tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga ulkan poydevor yaratadi. O‘z navbatida, ko‘plab yangi ish o‘rinlari tashkil etishga turtki bo‘ladi. Eng muhimi, yoshlar uchun puxta bilim olish imkoniyati, umuman, davlatimizning intellektual salohiyatini yanada oshirish uchun yetarli darajada sharoit yaratiladi.

Davomi 2-betda

Jaloliddin Manguberdi izidan

Prezidentimiz 2020-yil 12-13-mart kunlari Xorazm viloyatiga tashrifi doirasida Jaloliddin Manguberdi jasoratining yosh avlodni milliy g‘urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi tarixiy ahamiyatini hisobga olib, qator topshiriq va vazifalar bergandi.

TUPROQ – O‘ZLIK ILDIZI

YOXUD QUDRATLI XOQON BOBOLARIMIZGA BESHIK BO‘LGAN ZAMIN

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-iyuldagi farmoyishida bu topshiriqlar o‘z aksini topib, Jaloliddin Manguberdi izidan Turkiya, Mo‘g‘uliston va boshqa mamlakatlarga ilmiy-ma’rifiy ekspeditsiyalar uyushtirish, tarixiy hujjatlarni o‘rganish, asarlar yaratish singari qator vazifalar belgilab berildi. O‘tgan vaqt oralig‘ida o‘ndan ziyod tarixiy-ilmiy asar yaratilib, Xorazmning Urganch va Turkiyaning Diyorbakir shahrida Jaloliddin Manguberdi tarixining yangi sahifalarini o‘rganish yuzasidan nufuzli anjumanlar uyushtirildi.

Davomi 6-betda

Strategiyada mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish ham maqsad qilingan. Bunga xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish va eksportni ko‘paytirish orqali erishish mumkin.

YANGI O‘ZBEKISTON
2024-yil 24-yanvar, 17-son
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Munosabat

ISHBILARMONLIK MUHITINI YARATISHDA INVESTITSIYANING O‘RNI BEQIYOS

Oltinoy MAMIROVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Boshlanishi 1-betda

2024-yilda eng ko‘p eksport bo‘ladigan Yevropadagi 10 ta davlat bilan milliy sertifikatni ikki tomonlama tan olish bo‘yicha kelishuvga erishilib, 1,7 mingta xalqaro standart va 19 ta texnik reglament qabul qilinadi. 1,2 mingta korxonada xalqaro sifat tizimi joriy etilib, sifati kafolatlangan mahsulotlar turi amaldagi 4 mingtadan 7,5 mingtaga yetkaziladi.

Qulay tadbirkorlik va investitsiya muhitini shakllantirishga qaratilgan islohotlar samarasida birgina 2023-yilda 22 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiya o‘zlashtirilgan. Bu ko‘rsatkich 2022-yildagiga nisbatan 1,8 barobar ko‘pdir. Ammo so‘nggi yillarda bu borada yaratib berilgan sharoitlar, qonunchilikka kiritilgan o‘zgartirishlarni hisobga olsak, yanada yuqoriroq natijalarga erishish mumkinligi ayonlashadi.

Mamlakatlar iqtisodiyoti jadal rivojlanishida xorijiy investitsiya ulushi ortib borishi muhim rol o‘ynamoqda. Munosib ish sharoiti va mehnat haqiga ega ish o‘rinlarini yaratishda, yangidan-yangi bozorlarni zabt etishda ham investitsiyaning o‘rni beqiyos. Shu bois, yurtimiz iqtisodiyotini yanada erkinlashtirish, biznesga keng yo‘l ochish, bu borada qonun ustuvorligi va huquqiy kafolatlarni mustahkamlash bo‘yicha tizimli ishlar qilinmoqda. Jumladan, mintaqamizdagi eng qulay fiskal tizimni yaratish bo‘yicha katta o‘zgarishlarga erishildi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi esa bosqichma-bosqich 12 foizga tushirildi.

Chet ellik ishbilarmonlar uchun yurtimizda ko‘chmas mulk sotib olish, O‘zbekistonga kelib-ketish va yashash shartlari keskin soddalashtirildi. Investorlar huquqlarini sud orqali kafolatli himoya qilish borasida katta qadamlar qo‘yildi. Ma’muriy sudlarning nufuzi oshirilib, ularga katta vakolatlar berildi. Hozir yuzaga kelayotgan noaniqliklar ham investorlar foydasiga hal qilinyapti, desak ayni haqiqat.

Kelgusida ham bu boradagi amaliy ishlar izchil davom ettiriladi. Bunga hech qanday shubha yo‘q. Chunki “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida investitsiyaviy jozibadorlikni yanada oshirish va qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Xususan, 250 milliard dollar investitsiya o‘zlashtirish, jumladan, 110 milliard dollar xorijiy investitsiya va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiya jalb qilish, erkin muomaladagi qimmatli qog‘ozlar savdolari hajmini 8 milliard dollarga yetkazish qayd etilgan.

Chet ellik ishbilarmonlar uchun yurtimizda ko‘chmas mulk sotib olish, O‘zbekistonga kelib-ketish va yashash shartlari keskin soddalashtirildi. Investorlar huquqlarini sud orqali kafolatli himoya qilish borasida katta qadamlar qo‘yildi. Ma’muriy sudlarning nufuzi oshirilib, ularga katta vakolatlar berildi. Hozir yuzaga kelayotgan noaniqliklar ham investorlar foydasiga hal qilinyapti, desak ayni haqiqat.

Buning uchun esa umumiy qiymati 150 milliard dollar, strategik ahamiyatga ega texnologik va infratuzilmaviy 500 dan ziyod loyiha amalga oshiriladi. Natijada birgina investitsiya loyihalari va sanoatning o‘zida 250 ming ish o‘rni yaratiladi. Hududlarning investitsion reytingini yuritish, har bir hududning imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning investorlar uchun jozibadorligini yanada oshirish choralari ko‘rib boriladi.

Strategiyada mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish ham maqsad qilingan. Bunga xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish va eksportni ko‘paytirish orqali erishish mumkin.

Prezidentimiz raisligida shu yil 18-yanvar kuni 2024-yilda investitsiya, eksport va sanoat sohalaridagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ham investitsiyalar samaradorligi va galdagi rejalar muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, oxirgi olti yilda yurtimizga xorijdan qariyb 50 milliard dollar investitsiya kirgan. O‘tgan yili yalpi ichki mahsulot ham, sanoat ham 6 foiz o‘sgan. Lekin tovarlar eksportida o‘sish bo‘lmagan. Mamlakatimiz sertifikatlarini tan olish bo‘yicha xorijiy sheriklar bilan ishlar lozim darajada tashkil etilmagan.

Xalqaro moliya tashkilotlari ishtirokidagi qiymati 480 million dollarlik 5 loyiha bo‘yicha o‘zlashtirish boshlanmagan. Hududlarda moliyalashtirilishi to‘liq yakunlangan 8 trillion so‘mlik qariyb mingta loyiha ishga tushirilmasdan ortga surib kelinmoqda. Agar ushbu loyihalarning har biri o‘z vaqtida ishga tushirilganda, qanchadan-qancha yangi ish o‘rinlari yaratilishiga, iqtisodiyotda yanada katta marralar belgilanishiga asos bo‘lib xizmat qilgan bo‘lardi.

Yig‘ilishda sohadagi kamchiliklar aniq tahlillar asosida ko‘rsatib o‘tildi. O‘tgan yili 2 ta drayver tarmoq va 4 ta hududda 2022-yildagiga nisbatan eksport hajmlari kamaygani, eksportning 50 foizi hanuzgacha 4 ta bozorga to‘g‘ri kelayotgani yoki xorijga tovarlarning uchdan bir qismi xomashyo sifatida sotilayotgani qayd etildi.

O‘zbekiston “GSP+” tizimiga qo‘shilib, Yevropaga 6200 turdagi tovarni bojsiz olib kirish imkoniyatiga ega bo‘lsa-da, o‘tgan yili bu tizim doirasida bor-yo‘g‘i 384 turdagi tovar eksport qilingan. Meva-sabzavot eksporti uchun xorijiy davlatlarning fitosanitar ruxsatlari olinganiga qaramay, bundan to‘liq foydalanilmagan.

Iqtisodiyotning yana bir tayanch ustuni hamda mamlakatning xalqaro bozorlardagi obro‘sini oshiruvchi yo‘nalish eksportdir. Afsuski, bugungi tahlillar natijasi bu borada ham ishlar qoniqarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganini ko‘rsatmoqda. Bunga qator omillar sabab bo‘lmoqda.

Ushbu holatlarni bartaraf etish hamda strategiyada belgilangan maqsadlarga bosqichma-bosqich o‘z vaqtida erishib borish uchun joriy yildan boshlab eksportni yiliga kamida 30 foiz oshirib borish, uning hajmini 1 milliard dollarga chiqarish mumkin bo‘lgan mamlakatlar bilan yaqindan ishlash vazifalari belgilangan.

Shuningdek, endilikda iqtisodiyotning drayver sohalarida xalqaro standartlarni joriy qilish darajasi ham hozirgi 35 foizdan yuqori ko‘rsatkichga olib chiqiladi. Bunda Texnik tartibga solish agentligi to‘liq isloh qilinib, hukumat tarkibiga o‘tkaziladi.

Bu jarayonda eksportni qo‘llab-quvvatlash tizimi ham o‘zgaradi. Ya’ni Eksportni rag‘batlantirish agentligi Jahon savdo tashkiloti talablari asosida Savdoni rivojlantirish kompaniyasi sifatida qayta tashkil etiladi. Bu kompaniya beradigan subsidiya, kredit va yordamlar yangi reyting asosida, eng avvalo, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot bilan yangi bozorlarga chiqayotgan eksportchilarga ajratiladi.

2024-yilda eng ko‘p eksport bo‘ladigan Yevropadagi 10 ta davlat bilan milliy sertifikatni ikki tomonlama tan olish bo‘yicha kelishuvga erishilib, 1,7 mingta xalqaro standart va 19 ta texnik reglament qabul qilinadi. 1,2 mingta korxonada xalqaro sifat tizimi joriy etilib, sifati kafolatlangan mahsulotlar turi amaldagi 4 mingtadan 7,5 mingtaga yetkaziladi.

Yig‘ilishda investitsiya, eksport va xalqaro hamkorlik sohasidagi salohiyat va imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanish borasida belgilab berilgan aniq vazifalar mamlakatimizning yanada taraqqiy etishi, xalqimiz farovonligini yuksaltirish, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda tadbirkorlik va ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Xalq bilan muloqot

“OBOD”NING IKKI QANOTI

Oltiariq tumanidagi “Obod” mahalla fuqarolar yig‘inida aholi bandligini ta’minlash, turmushini farovon qilish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar ko‘hna qishloq hayot tarzini o‘zgartirdi. Mahallada sanoat, tomorqachilik, asalarichilik, bog‘dorchilik, ko‘chat yetishtirish, meva saqlash va qayta ishlash, eksport bilan bog‘liq zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari tashkil etildi. Yil yakunlariga ko‘ra, mahalla ishsizlik va jinoyatchilikdan xoli hudud sifatida e’tirof etildi. Bu bejiz emas, albatta.

Prezidentimiz tashabbusi bilan mahallalarda hokim yordamchilari ish boshlagani odamlar hayotiga intilish, izlanish kabi yaratuvchanlik tuyg‘ularini olib kirdi. Birinchi navbatda, ijtimoiy himoyaga muhtojlarga manzilli ko‘maklashish, ishbilarmonlik va tadbirkorlik muhitini rivojlantirish orqali odamlarni ishli qilish, daromadini oshirishda bu tuzilmaning amaliy sa’y-harakati o‘z samarasini bermoqda. Aholi ularga ishonyapti, dardini aytyapti.

Mutaxassisligi mexanik-iqtisodchi bo‘lgan Qilichbek Abdujabborov mas’uliyatli vazifaga tayinlangunga qadar turli vazifalarda ishlab, tajriba to‘plagan izlanuvchan yoshlardan. Shu bois, aholi bilan muloqotga kirishib, mavjud masalalar yechimida hamjihatlikda ishlab, ko‘pning hurmatini qozondi, ishonchini mustahkamladi.

Hududda 2820 nafar aholi yashaydi. Mahallabay, xonadonbay o‘rganishlar natijasida 17 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta’minlangan oilalar, yoshlar, ayollar, “Temir daftar”ga kiritilgan 187 nafardan ortiq fuqaro muammolarini aniqlash va bartaraf etish choralari belgilandi.

Olib borilgan amaliy ishlar natijasida keyingi ikki yilda mahalla hududida 28 ta yangi tadbirkorlik subyekti tashkil qilindi. Oilalarning iqtisodiy ta’minotini yaxshilash, kambag‘allikni qisqartirish va manfaatdorligini oshirishda ijobiy natijalarga erishilyapti.

Hojiakbar G‘aniyev mahalladagi yosh tadbirkorlardan. Uning “Hojiakbar Asl Tekst” MCHJ qoshida paypoq ishlab chiqarish bo‘yicha taklif qilgan loyihasi hokim yordamchisi tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, 200 million so‘mlik imtiyozli kredit mablag‘i ajratildi. Bu yerdagi 12 ta to‘quv dastgohida o‘ndan ortiq turli bozorgir mahsulot tayyorlash yo‘lga qo‘yilib, 15 nafar yigit-qiz bandligi ta’minlandi.

Ozodbek Maqsudov ham ishbilarmon kishilardan. Mahalla hududida rossiyalik sarmoyadorlar bilan hamkorlikda 300 ming dollarlik investitsiya jalb etilib, “Tinchlik meva eksport” korxonasiga asos soldi. Bu yerda 20 ta doimiy va 100 dan ziyod mavsumiy ish o‘rni yaratilgan. Yangi korxona aholi tomorqasi va fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yig‘ish, saqlash, qadoqlash va eksportga yo‘naltirish bilan shug‘ullanadi.

Shuningdek, 2000 tonna sig‘imga ega muzlatkichli ombor qurildi. Bu oltiariqlik mirishkorlar yetishtirgan sarxil sabzavot ekinlarini yil davomida saqlash va iste’molga yetkazish imkoniyatini bermoqda. O‘tgan yilning o‘zida korxona tomonidan 8 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlari Rossiya va Mo‘g‘ulistonga eksport qilindi. Bundan tashqari, plastik va yog‘och qutilar ishlab chiqarish, tirkamali yuk mashinalari va avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish ustaxonasi tashkil qilindi.

Hokim yordamchisi tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, mavjud imkoniyatlarni kengaytirish orqali o‘zi va boshqalarni band qilish istagida bo‘lganlarni har jihatdan qo‘llab-quvvatlab, amaliy yordam berib kelyapti. Shu kunga qadar ishsizligi sabab “Ayollar daftari”da turgan 50 nafar xotin-qiz hududga yaqin joylashgan “Hamza Expo Art Textile”, “Hojiakbar Asl Tekst”, “Qadamcha Plyus” MCHJ va “Mohlaroy Lazizbek Fayz” xususiy korxonalariga ishga joylashtirildi, 18 nafari imtiyozli kredit mablag‘lari asosida tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ydi.

— Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yilida umumiy qiymati 1,5 million dollar bo‘lgan yangi loyihani amalga oshirish borasida ish boshladik, — deydi tadbirkor. — Istiqbolli dasturlar doirasida 1000 tonna sig‘imli muzlatkich ombori, qadoqlash uskunalari o‘rnatish hamda 20 o‘rinli mehmonxona qurish ishlarini poyoniga yetkazamiz. Bu 50 dan ortiq doimiy ish o‘rni yaratish, xomashyo emas, tayyor va yarim tayyor qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Hokim yordamchisi tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, mavjud imkoniyatlarni kengaytirish orqali o‘zi va boshqalarni band qilish istagida bo‘lganlarni har jihatdan qo‘llab-quvvatlab, amaliy yordam berib kelyapti. Shu kunga qadar ishsizligi sabab “Ayollar daftari”da turgan 50 nafar xotin-qiz hududga yaqin joylashgan “Hamza Expo Art Textile”, “Hojiakbar Asl Tekst”, “Qadamcha Plyus” MCHJ va “Mohlaroy Lazizbek Fayz” xususiy korxonalariga ishga joylashtirildi, 18 nafari imtiyozli kredit mablag‘lari asosida tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ydi.

— Tikuvchilik malakasiga egaman. Ammo tikuv va boshqa ishlab chiqarish dastgohlarining eskirgani bois, bozor talablariga mos sifatli mahsulot tayyorlashda birmuncha qiyinchiliklarga duch kelib, faoliyatimizni to‘xtatishga majbur bo‘lgan edik. Shu sabab bir qancha vaqt ishsiz sifatida “Ayollar daftari”da qayd qilingandim, — deydi Irodaxon Qosimova. — Mahallamizdagi hokim yordamchisi bilan muloqotda yangi tikuv jihozlari xarid qilish uchun mablag‘ masalasida amaliy yordam berishini so‘radim. Murojaatim ijobiy yechim topdi, menga 15 million so‘m ajratilib, so‘nggi rusumdagi tikuv dastgohlari olib berishdi. Uy sharoitida tikuvchilik korxonasi tashkil qildim, mahallamizdagi 6 nafar xotin-qiz uchun ish o‘rinlari yaratdim.

Bu kabi misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Eng muhimi, aholi bandligini ta’minlash orqali kambag‘allikdan chiqarish, turmushini yaxshilash, farovonligini oshirishga qaratilgan islohotlar mahalladagi har bir oila hayotiga kirib bormoqda.

— Har bir murojaat ortida inson taqdiri, uning buguni va ertangi kuni mujassam, — deydi hokim yordamchisi Qilichbek Abdujabborov. — Aholi bilan olib borilayotgan amaliy muloqot ish faoliyatimiz uchun muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Asosiysi, yangi ish o‘rinlari yaratish orqali aholi daromadini oshirish, bu yo‘nalishda ish boshlamoqchi bo‘lgan tashabbuskorlarni qo‘llab-quvvatlayapmiz. O‘tgan yili bu yo‘nalishda umumiy qiymati 1 milliard 300 million so‘mdan ortiq kredit mablag‘lari ajratildi. Tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish imkoniyati bor, ammo yetarli bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lmagan 6 nafar fuqaro kasb-hunarga o‘qitildi, 9 nafar ishsizga subsidiya ajratildi.

Hokim yordamchisi mahalla hayoti bilan bog‘liq barcha jabhalarda faol ishtirok etmoqda. Ayniqsa, infratuzilma tarmoqlari faoliyatini yaxshilash orqali mahalladoshlari og‘irini yengil, uzog‘ini yaqin qilishga oid istiqbolli loyihalarni amalga oshirishda bosh-qosh. Shu kunga qadar 9 kilometrdan ortiq toza ichimlik suvi tarmog‘i tortildi. Mahalla hamjihatlikda “Ochiq budjet” loyihasida g‘olib bo‘lib, 3 kilometrdan ortiq ichki yo‘llar asfaltlandi. Davlat-xususiy sheriklik asosida 150 o‘rinli “Qadamcha” maktabgacha ta’lim tashkiloti, mahalla fuqarolar yig‘ini binolari qurildi. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 1 gektar yerda bog‘ tashkil etildi.

Sirasini aytganda, ko‘lami keng ezgu ishlar mahalladagi har bir oila hayotida bo‘y ko‘rsatyapti. Natijada aholi turmushi yaxshilanib, dasturxonlar to‘kinligi ta’minlanyapti. Ta’bir joiz bo‘lsa, “Obod”dagi hokim yordamchisi xalq bilan muloqotga kirishib, ularning og‘irini yengil qilib, farovon muhitning bir qanotiga aylangan bo‘lsa, imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan, shukronalik hissi bilan yashayotgan aholi uning ikkinchi mustahkam qanotidir.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Xalqaro hamkorlik

O‘zbekiston – Xitoy: SIYOSIY DIPLOMATIK ALOQALAR – YANGI DAVRNING MUHIM PLATFORMASI

Sayfiddin JO‘RAYEV,
siyosiy fanlar doktori, professor

Boshlanishi 1-betda



Shu bilan birga, O‘zbekiston — Xitoy sarmoyaviy hamkorligi jadal rivojlanib, turli yo‘nalishlarda yanada diversifikatsiya qilinmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda Xitoy O‘zbekistonning asosiy sarmoyaviy hamkoriga aylanib, umumiy sarmoya hajmi 11 milliard AQSH dollaridan oshgan. Bugungi kunga qadar juda ko‘p hayotiy hamda muhim istiqbolli loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirildi va davom ettirilmoqda. Ular orasida infratuzilma, kimyo sanoati, energetika, suv xo‘jaligi, transport, kommunikatsiya va boshqa sohalarga oid loyihalar bor.

O‘ZARO ISHONCH USTUVORLIGI

Ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy diplomatik aloqalarning muntazam rivojlanishi va samaradorligini belgilab beruvchi asosiy nuqta yuqori darajadagi o‘zaro munosabatlarning izchilligi bilan bog‘liq. Bu esa, o‘z navbatida, davlat rahbarlari o‘rtasidagi samimiy ishonch, vaziyatni strategik baholashning yangi tajribasi va zamonaviy tashabbuslarni ilgari surishga asos bo‘lmoqda. Shuningdek, ikki tomon uchun amaliy ahamiyatga ega qarorlar ishlab chiqishga olib keluvchi ochiq va pragmatik muloqotning yo‘lga qo‘yilgani, davlat rahbarlari o‘rtasida turli shakl va formatlarda uchrashuvlar tashkil etilishi samarali natijalarga olib kelyapti.

Jumladan, 2017-2022-yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev va XXR Raisi Si Szinpin ko‘p tomonlama sammitlarda uchrashdi, ikki mamlakat rahbarlarining o‘zaro rasmiy va amaliy tashriflari bo‘lib o‘tdi, telefon muloqotlari amalga oshirildi. XXR Raisi Si Szinpinning 2022-yil sentabrda O‘zbekistonga, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil va 2023-yilda Xitoyga tashrifi ikki tomonlama munosabatlar rivojida kuchli turtki bo‘ldi.

Siyosiy diplomatik aloqalarning muntazamligi va barqarorligida ikki davlat parlamentlari hamda hukumatlarining faol hamkorligi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, 2017-yil may oyida Oliy Majlis va Butunxitoy xalq vakillari kengashi o‘rtasida hamkorlik bo‘yicha parlamentlararo guruh muloqotlari yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, parlament delegatsiyalarining o‘zaro tashriflari almashilyapti. 2019-yilda hukumatlararo almashinuv doirasida O‘zbekiston Bosh vazirining Xitoyga va XXR Davlat kengashi Bosh vazirining O‘zbekistonga tashrifi amalga oshirildi, 2021-yil iyun oyida hukumat rahbarlarining onlayn uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. 2022-yil avgust oyida esa onlayn tarzda Hamkorlik bo‘yicha O‘zbekiston — Xitoy Hukumatlararo qo‘mitasining 6-majlisi tashkil etildi. 2023-yil oktabr oyida Bosh vazir Abdulla Aripov XIX Osiyo o‘yinlarining yopilish marosimida ishtirok etish uchun Xitoyga tashrif buyurdi va XXR Davlat kengashi Bosh vaziri Li Syan bilan uchrashdi.

“BIR MAKON, BIR YO‘L” — SAMARADOR TASHABBUSLAR MAYDONI

“Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi 2013-yilda Xitoy hukumati tomonidan 150 ga yaqin davlat va xalqaro tashkilotlarga sarmoya kiritish uchun qabul qilingan global infratuzilmani rivojlantirish strategiyasi hisoblanadi. Mazkur dastur Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin tashabbusi bilan yo‘lga qo‘yilgan. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad Buyuk ipak yo‘li chorrahasida kesishgan qo‘shni davlatlar bilan hamkorlikda “iqtisodiy kamarni qurish”dan iborat. Ushbu tashabbusda O‘zbekistonning ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda o‘zaro umumiy manfaat tamoyili hamohanglik qilmoqda.

Xalqaro doirada Buyuk ipak yo‘lining zamonaviy ko‘rinishi sifatida baholanayotgan va davlatimiz rahbari tomonidan “Xalqaro hamkorlikning yangi modeli” sifatida e’tirof etilgan “Bir makon, bir yo‘l” dasturi mintaqalar o‘rtasidagi umumiy taraqqiyot va farovonlikka erishish yo‘lidagi zaruriy, inklyuziv hamda ochiq platformaga aylanib bormoqda.

O‘zbekiston ko‘p tomonlama munosabatlar, boshqacha aytganda, tashabbus doirasidagi ishtirokchi davlatlar bilan savdo-iqtisodiy, investitsiyalar, transport sohasidagi imkoniyatlardan birgalikda foydalanish va takomillashtirish, zamonaviy iqtisodiy diplomatiyani rivojlantirishning mexanizmlarini shakllantirishga qulayliklar yaratmoqda. Xususan, har bir mamlakatga barcha sheriklar bilan munosabatlarda imtiyozlardan foydalanish imkonini beradigan mexanizmlar asosida xalqaro tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga o‘ziga xos hissa qo‘shmoqda.

O‘zbekiston uchun Xitoy tashabbusi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi ulkan hududda davlatlar bilan mavjud imkoniyatlardan birgalikda foydalanish, mavjud to‘siqlarni birgalikda yechish va istiqboldagi harakatlarni o‘zaro hamkorlikda va birgalikda muvofiqlashtirish ruhi jozibali hisoblanadi. Bu iqtisodiyotning yanada ochiq, inklyuziv, qulay, muvozanatli va o‘zaro manfaatli yo‘nalishda harakatlanishiga yordam bermoqda.

Mamlakatimiz tomonidan ilgari surilgan va doimiy ravishda e’tibor qaratib kelinayotgan O‘zaro bog‘liqlik konsepsiyasini amalga oshirish, Markaziy Osiyo va tashabbus ishtirokchilari bilan qo‘shma loyihalarni ishlab chiqish hamda yangi tashabbuslarni ilgari surishda xalqaro maydon sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Bu borada mintaqaning tranzit salohiyatini ishga solish, jumladan, Xitoy — Markaziy Osiyo — Janubi-g‘arbiy Osiyo iqtisodiy koridorini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Boshqacha aytganda, tashabbus doirasidagi o‘zaro hamkorlik butun dunyoda, xususan, O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishning muhim yo‘liga aylanishiga yangi sharoitlarni vujudga keltirayotgani bilan farqlanadi.

SHHT FAOLIYATIDA TRANSFORMATSION O‘ZGARISHLAR

Xitoy va O‘zbekiston SHHTning ta’sischilari sifatida ko‘p yillar davomida boshqa a’zo davlatlar bilan tashkilot doirasida xavfsizlik, iqtisodiyot, savdo va mutaxassislar almashinuvi kabi turli sohalarda yaqin hamkorlik qilib kelmoqda. Xitoy O‘zbekistonning SHHTdagi ishtiroki va faoliyatini doimo yuqori baholagan. Buni O‘zbekiston ilgari surgan tashabbus va takliflar Xitoy tomonidan muntazam qo‘llab-quvvatlanayotgani misolida ham ko‘rish mumkin. Ayniqsa, tashkilotning Samarqand shahrida o‘tkazilgan sammitida, yangi xalqaro tartibotlar o‘rnatilayotgan sharoitda muloqot va hamkorlikning yangi modeli shakllanishini boshlab berdi. O‘zbekiston tomoni manfaatli hamkorlikni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida o‘zaro savdoni har tomonlama kengaytirish va chuqurlashtirish, infratuzilmani, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, yashil va raqamli transformatsiyani jadallashtirish, yuqumli kasalliklar, iqlimning salbiy oqibatlariga qarshi birgalikda kurashish masalalarini kun tartibiga qo‘ydi. O‘z navbatida, sammit bu masalalarni yechishga qaratilgan muhim strategik va konseptual ahamiyatga ega 44 ta hujjatni qabul qildi.

O‘zbekiston SHHT faoliyati yangi rivojlanish bosqichiga chiqishiga sabab bo‘ladigan transformatsion o‘zgarishlarni boshlab berdi. Dunyoda vaziyat borgan sari murakkablashib, ayrim davlatlar o‘rtasida kelishmovchilik, harbiy-siyosiy mojaro avjiga chiqayotgan vaziyatda tashkilotni o‘zaro ochiq va konstruktiv muloqotga asoslangan hamkorlik platformasiga aylantirdi. Tashkilotdagi “Shanxay ruhi”ga hamohang “Samarqand ruhi”ni olib kirdi. O‘zbekistonning tashkilot doirasidagi sa’y-harakati dunyodagi vaziyatni pragmatik tushunishga turtki berdi. Sammit doirasida Umumiy xavfsizlik va farovonlik yo‘lida Samarqand birdamlik tashabbusining qabul qilinishi tinchlikni ta’minlash, nafaqat tashkilotga a’zo davlatlar, balki butun Yevroosiyo mintaqasi rivojlanishiga xizmat qiladigan qarorlar qabul qilish va amalga oshirishda yangi davrning muhim platformasi sifatida strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekiston — Xitoy o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik uzoq muddatga mo‘ljallangan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va boshqa ko‘plab sohalarni qamrab olgan. O‘zaro munosabatlarni muvofiqlashtirishning tashkiliy-huquqiy asoslari shakllanib, rivojlanib bormoqda. Strategik sheriklar o‘rtasida manfaatlarni hisobga olish, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, bir-biriga bosim o‘tkazmaslik kabi qadriyatlar ustunlik qilmoqda.

O‘ylaymizki, navbatdagi yuqori darajadagi uchrashuv erishilgan natijalarni strategik tahlil etish, davlatlarimiz o‘rtasidagi muhim kelishuvlarni amalga oshirish, Xitoy va O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlik istiqbollarini yuqoridagi omillardan kelib chiqib, yanada mustahkamlashda muhim poydevor bo‘ladi.

“Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi 2013-yilda Xitoy hukumati tomonidan 150 ga yaqin davlat va xalqaro tashkilotlarga sarmoya kiritish uchun qabul qilingan global infratuzilmani rivojlantirish strategiyasi hisoblanadi. Mazkur dastur Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin tashabbusi bilan yo‘lga qo‘yilgan. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad Buyuk ipak yo‘li chorrahasida kesishgan qo‘shni davlatlar bilan hamkorlikda “iqtisodiy kamarni qurish”dan iborat. Ushbu tashabbusda O‘zbekistonning ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda o‘zaro umumiy manfaat tamoyili hamohanglik qilmoqda.

Taraqqiyot yo‘li

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH

do‘stona munosabatlarni mustahkamlash asosi

Timur ABDULLAYEV,
Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi boshqarma boshlig‘i

Boshlanishi 1-betda

Ushbu davlat tashrifi arafasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston — Xitoy: ming yilliklarni qamrab olgan do‘stlik va hamkorlik” nomli maqolasi Xitoyning markaziy gazetalarida e’lon qilindi. Unda davlatimiz rahbari XXR Raisi Si Szinpin boshchiligida Xitoy Xalq Respublikasining hozirgi taraqqiyot yo‘li, jahonda tobora oshib borayotgan nufuzi va mavqei, mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarning uzoq tarixiga yuksak baho berdi.

“Buyuk qadimiy sivilizatsiyalar har doim bir-biriga o‘xshash, bir-birini tushunadi va ruhan yaqindir. O‘zbek va xitoy xalqlarining madaniyati va ideallari o‘xshash”, deya ta’kidlanadi maqolada.

Darhaqiqat, boy tarixiy merosga ega mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar bir necha ming yilliklarga borib taqaladi. Tarixan Buyuk ipak yo‘li mintaqa xalqlarini bir-biriga bog‘lab, nafaqat savdo, balki ilmiy va madaniy rishtalar o‘rnatishda muhim rol o‘ynagan.

Bugungi kunda ikki davlat yetakchilarining mustahkam do‘stligi va siyosiy irodasi tufayli O‘zbekiston va Xitoy munosabatlari strategik sheriklik darajasida jadal rivojlanib kelmoqda. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston va Xitoy xalqaro maydonda umumiy manfaatli masalalar bo‘yicha, shuningdek, milliy rivojlanish strategiyasini ilgari surishda ham bir-birini qo‘llab-quvvatlab kelmoqda.

Ma’lumki, ikki davlat o‘rtasida 2023-2027-yillarga mo‘ljallangan yangi davrdagi har tomonlama strategik sheriklikni rivojlantirish dasturi amalga oshirilmoqda. Tomonlarning birgalikdagi sa’y-harakatlari tufayli savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy sohalarda sezilarli yutuqlarga erishildi.

Xitoy uzoq yillar davomida O‘zbekistonning asosiy iqtisodiy hamkori sifatidagi mavqeini izchil saqlab kelmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda ham Xitoy O‘zbekistonning asosiy savdo hamkori, deb e’tirof etildi. Yil davomida ikki davlat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 52,2 foizga o‘sib, 13,7 milliard AQSH dollarini tashkil etdi.

“Bir makon, bir yo‘l” tashabbusini birgalikda amalga oshirish borasidagi hamkorlik ham samarali bo‘lmoqda. O‘tgan davr ichida “Xitoy — Markaziy Osiyo” gaz quvuri, Qamchiq dovonida mintaqamizdagi eng uzun temir yo‘l tunneli, “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” avtomobil yo‘li, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida 1000 megavatt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyalari qurilishi kabi qator yirik qo‘shma loyihalar amalga oshirildi.

O‘zbekiston — Xitoy o‘rtasida sarmoya va zamonaviy texnologiyalar sohasidagi hamkorlik tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xitoy kompaniyalari va moliya institutlari ishtirokida yuqori texnologiyalar, muqobil energetika, kimyo, mashinasozlik, metallurgiya, elektrotexnika, infratuzilmani modernizatsiya qilish kabi sohalarda ko‘plab sarmoyaviy loyihalar amalga oshirilmoqda. Xitoyning O‘zbekistonga kiritayotgan sarmoyasi har yili 40-50 foizga oshib boryapti.

Hozirgi vaqtda dunyoda yuz berayotgan shiddatli innovatsion o‘zgarishlar, raqamlashtirish jarayoni, sun’iy intellektning joriy etilishi mamlakatlarimiz oldiga yangidan-yangi dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Bunday sharoit davlatlarimizning hamkorlik borasida hali ishga solinmagan ulkan imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanishni taqozo etadi.

Mutaxassislar fikricha, yaqin besh yil ichida jahon mehnat bozorida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y beradi. Xususan, 83 million ish o‘rni yo‘q bo‘lishi hamda 69 million yangi ish o‘rni yaratilishi kutilmoqda.

O‘z navbatida, kadrlar siyosati, inson kapitalini rivojlantirish borasidagi hamkorlik davlatlarimizning ulkan salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladigan muhim yo‘nalishlardan biridir.

Bugungi kunda aynan inson kapitalini rivojlantirish yo‘nalishidagi hamkorlik ikki davlat o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni mustahkamlash uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu borada erishilgan salmoqli yutuqlarni alohida ta’kidlash joiz.

Ayni paytda ikki mamlakat ta’lim, ilmiy-texnika muassasalari o‘rtasida samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan, idoralararo dasturlar doirasida talabalar va stajyorlar almashinuvi faollashmoqda. O‘zbekistondagi oltita universitetda xitoy tili o‘qitiladi.

O‘zbekistondagi oliy o‘quv yurtlarida 600 dan ortiq talaba xitoy tilini asosiy til sifatida o‘rganyapti. Xitoy tarixi, madaniyati va an’analarini o‘rganishni targ‘ib qilish maqsadida mamlakatimizdagi oliy o‘quv yurtlarida xitoy tili markazlari tashkil etilib, ular o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, o‘lkashunoslik bo‘yicha darslik va materiallar bilan ta’minlangan.

Toshkent va Samarqand shaharlarida Konfutsiy instituti faoliyati yo‘lga qo‘yilgan, ularda mingdan ortiq yoshlar xitoy tilini o‘rganmoqda. Shuningdek, yurtimizda nufuzli Sinxua va Pekin universitetlarining filiallarini ochish bo‘yicha muhokamalar ham davom etyapti.

Bugun O‘zbekiston har tomonlama ijtimoiy adolatga erishish, qashshoqlikka qarshi kurashish, o‘rta sinfni kengaytirish, farovonlik va tenglikni ta’minlash borasida Xitoy tajribasini o‘rganishdan chuqur manfaatdor.

Keyingi yillarda ikki davlat o‘rtasida mintaqalararo aloqalar faollashdi. O‘zbekistonga Shinjon-Uyg‘ur avtonom okrugi, Shensi, Shandun, Szyansu va Szyansi provinsiyalaridan delegatsiyalar tashrif buyurdi. Mamlakatimizda Xitoyning kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha to‘plagan boy tajribasini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Qayd etish kerakki, davlat xizmatchilari uchun Xitoyda malaka oshirish kurslarini tashkil etish borasida ham samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Misol uchun, o‘tgan besh yil ichida 4200 ga yaqin davlat xizmatchisi ana shunday malaka oshirish dasturlarida ishtirok etdi. Malaka oshirish dasturlari kambag‘allikni qisqartirish, qishloq xo‘jaligi, davlat boshqaruvi, tadbirkorlik, iqtisodiyot va moliya, energetika, ta’lim, turizm va boshqa sohalarni qamrab oldi.

Ikki tomonlama hamkorlikning bunday shakllari O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida inson kapitali, bilim almashinuvi va madaniy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Mavjud imkoniyat va resurslardan foydalangan holda, tomonlar o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga intilmoqda.

Iqtisodiy kompleks rahbarlari hamda barcha davlat korxonalari uchun “2024-yil — tannarxni qisqartirish va samaradorlik yili” bo‘lishi lozimligi ta’kidlandi.

YANGI O‘ZBEKISTON
2024-yil 24-yanvar, 17-son
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Nuqtayi nazar

O‘ZGARISH BOR

LEKIN FOYDALANILMAYOTGAN IMKONIYATLAR HAM YETARLI

Shavkat TO‘RAYEV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Shu o‘rinda savol: barqarorlikka qanday erishiladi? Uning javobi oddiy va hamma biladigan darajada: albatta, uzoqni ko‘zlagan, izchil va samarali islohotlar orqali. Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotidagi o‘zgarishlar olib borilayotgan xalqchil va aniq maqsadli islohotlar mevasidir. Biz bu yerda bekorga xalqchil va aniq maqsadli degan jumlalarni qo‘llamadik. Binobarin, ishlab chiqilgan dasturlar xalq manfaati, inson qadri va uning munosib hayot kechirishini ta’minlashi bilan alohida ajralib turadi. Bunga istalgancha misollar keltirish mumkin. Jumladan, 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi belgilab olingan bo‘lsa, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida yuzta maqsad ilgari surildi. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi tufayli esa yanada zalvorli, yanada mas’uliyatli vazifalarni zimmamizga olganmiz.

Bugun biz nihoyatda og‘ir va murakkab davrda yashayapmiz. Odamzod iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy muammolar o‘ramida, ilgari ko‘rmagan, bilmagan mislsiz xavf-xatar hamda tahdidlar qurshovida qolyapti. Buni yon-atrofimizda, dunyoda bo‘layotgan voqea-hodisalardan barchamiz ko‘rib, bilib turibmiz.

> **Yurtimizdagi yangi davr epkinlarini anglash va his qilish uchun uzoqqa borishning hojati yo‘q. Shundoqqina yon-atrofga qarashning, o‘zgarishlarga bir qur nazar tashlashning, odamlar bilan suhbatlashishning o‘zi kifoya. Ilgari go‘yo imkonsizdek tuyulgan, ilojsiz, deya baholangan loyihalar, tashabbuslar qisqa muddatlarda ro‘yobga chiqarilmoqda.**

NATIJA YAKUNIY MARRA EMAS

Videoselektor yig‘ilishlaridan so‘ng menda shunday xulosalar paydo bo‘ldi: erishilgan natijalar marra emas, yanada oldinga harakat qilish, xalq farovonligi yo‘lida sidqidildan mehnat qilish kerak.

Raqamlarga e’tibor qaratamiz: 2023-yili mamlakatimizda iqtisodiy o‘sish 6 foizni tashkil qilgan. Jumladan, sanoat 6, xizmat ko‘rsatish 6,8, qurilish 6,4, qishloq xo‘jaligi 4,1 foiz o‘sgan. Bu yil yalpi ichki mahsulot hajmini kamida 6 foizga ko‘paytirib, 100 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan.

Davlatimiz rahbari buning uchun, avvalo, eng katta islohotchi bo‘lgan iqtisodiy kompleks xodimlari juda qattiq ishlashi kerakligini ta’kidladi. Masalan, umumiy sanoat hajmi o‘sgani bilan ishlab chiqarishda qo‘shilgan qiymat 40 foizdan oshmagan. Buning sababi sifatida importga qaramlik, energiya iste’moli yuqoriligi va ortiqcha xarajatlar ko‘pligi ko‘rsatildi. Shu bois, iqtisodiy kompleks rahbarlari hamda barcha davlat korxonalari uchun “2024-yil — tannarxni qisqartirish va samaradorlik yili” bo‘lishi lozimligi ta’kidlandi.

Bugungi davr shiddatli. Uning talab va tamoyillari tobora takomillashib bormoqda. Bunday sharoitda, darhaqiqat, qo‘lga kiritilgan yutuqlar bilan kifoyalanib bo‘lmaydi. Yangi tashabbus va g‘oyalar bilan ishlash zarur. Buni har birimiz chuqur tushunib olishimiz darkor. Zotan, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 21-maqsadida keltirilganidek, iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni 1,6 barobar oshirish, 22-maqsadida esa milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, mahsulot ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobar ko‘paytirish rejalashtirilgan. Buning uchun sanoatning yetakchi tarmoqlarini va iqtisodiyotni liberallashtirish hamda transformatsiya qilish yumushlari nihoyasiga yetkazilishi kerak bo‘ladi.

Shuningdek, energiya resurslari va tabiiy gaz bozorlari ijtimoiy himoya qilish kafolatlariga mos tarzda erkinlashtirilib, sohaga xususiy investitsiyalarni keng jalb qilishga katta ahamiyat beriladi. Mis sanoati klasterini tashkil etish orqali mis va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 2 barobar ko‘paytirilib, 8 milliard dollarlik mahsulot ishlab chiqarish uchun asos yaratiladi. Qurilish materiallari, to‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ham 2 barobar ko‘paytiriladi. Yirik sanoat tarmoqlari hamda hududiy korxonalar o‘rtasida sanoat kooperatsiyasi rivojlantiriladi va hokazo. Bunday rejalar ko‘p va ularning bir nechtasi allaqachon ro‘yobga chiqarilayotgani diqqatga sazovor. Bunga 2023-yil oxirida nafaqat energetika sohasi, balki iqtisodiyotimiz, xalqimizning buguni va kelajak hayoti uchun muhim voqea — mamlakatimizning olti hududida 5 ta quyosh, 1 ta shamol elektr stansiyasi ishga tushirilib, tarmoqqa ulanganini misol sifatida keltirish mumkin. Chunki qayerda barqaror energiya bo‘lsa, o‘sha joyda iqtisodiyot ham benuqson rivojlanadi. Ya’ni energetika butun iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi vosita hisoblanadi. Yanada muhimi, energetika tizimi “yashil”, ya’ni ekologik toza bo‘lsa, nur ustiga nur. Mazkur loyihalar dolzarbligi, ahamiyati haqida to‘xtalmaymiz. Bu xususda bizgacha mahalliy, xorijiy nashrlarda maqolalar, tahlillar ko‘p berildi. Muhimi, O‘zbekiston o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlarga bunday misollar bisyor. Biroq bular yetarli emas. Hali qilinadigan ishlar ko‘p. Buni o‘tgan olti yilda yurtimizga xorijdan qariyb 50 milliard dollar investitsiya kiritilib, 2023-yili yalpi ichki mahsulot ham, sanoat ham 6 foiz o‘sgani holda, tovarlar eksportida o‘sish bo‘lmaganidan ham bilish mumkin.

Shuningdek, mamlakatimiz sertifikatlarini tan olish bo‘yicha xorijiy sheriklar bilan ishlar lozim darajada tashkil etilmagan. Xalqaro moliya tashkilotlari ishtirokidagi 480 million dollarlik 5 ta loyiha bo‘yicha o‘zlashtirish boshlanmagan. Hududlarda moliyalashtirilishi to‘liq yakunlangan 8 trillion so‘mlik qariyb mingta loyiha haligacha ishga tushmagan.

To‘g‘ri, yirik xalqaro kompaniyalar bizga ishonch bildirmoqda. Mablag‘larini hech qanday ikkilanishlarsiz O‘zbekistondagi biznesga yo‘naltirmoqda. Ammo “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida mamlakatimiz YIM hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish maqsadi belgilangan ekan, bunda davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, xorijiy investitsiyalarni yanada faol jalb etish va eksportni ko‘paytirish zarur. Faqat ichki bozor bilan natijaga erishib bo‘lmaydi. Buning uchun iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, hamkor mamlakatlar bilan aloqalarni yanada mustahkamlash, sarmoyadorlar, tadbirkorlar uchun biznes muhitini yanada yaxshilash talab etiladi.

IQTISODIYOT TAYANCHI

Gap o‘zani ishbilarmonlik muhitiga burilgan ekan, mamlakatimizda kichik biznes subyektlariga yaratilayotgan shart-sharoit hamda imkoniyatlar xususida fikr yuritmasak, bo‘lmas. Binobarin, ana shu qulay muhit tufayli O‘zbekistonda tadbirkorlik jadal rivojlanmoqda. Soha vakillariga iqtisodiyotning tayanch ustuni, kuchi sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizdagi ishbilarmonlik muhiti Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan 2020-yildan buyon so‘rov o‘tkazish asnosida tahlil qilib kelinadi. Har oyda o‘tkaziladigan so‘rovnomada yurtimiz bo‘ylab 1000 nafar biznes vakillari qatnashadi. Yaqinda ushbu markaz ishbilarmonlik muhitining bir yillik jamlangan tahlilini e’lon qildi. Unda keltirilishicha, umumiy tahlil 2023-yilda keskin tebranishlarga uchramagani va ijobiy qolganini ko‘rsatgan.

Yil yakuni bo‘yicha ishbilarmon doiralar tomonidan to‘siqlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, tadbirkorlarning o‘rtacha 53 foizi biznes yuritishda hech qanday to‘siq yo‘qligini ta’kidlagan bo‘lsa, ayrim qatnashchilar biznesni yuritishga eng ko‘p ta’sir ko‘rsatadigan to‘siqlar sifatida moliyalashtirish, yer, soliq va elektr energiyasi bilan bog‘liq masalalarni qayd etgan.

Har qanday mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti aynan shu yurtda tadbirkorlik qay darajada rivojlanayotganidan dalolat beradi. Chunki iqtisodiyotdagi ijobiy o‘zgarishlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushining ko‘payib borishiga, yaratilgan ishbilarmonlik muhitiga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Taraqqiyot strategiyasining 29-maqsadida tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoit yaratish, xususiy sektorning YIMdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish ko‘zlangani ana shunday masalalarni hal etish dolzarb ekanini anglatadi. Va bu jarayon har yili Prezidentning tadbirkorlar bilan o‘tkazayotgan “Ochiq muloqoti”da o‘z yechimini topyapti ham.

Yurtimizda xususiy sektor nafaqat tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish, balki uning rivojlanishiga bilvosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan har qanday yo‘nalishga e’tibor qaratish orqali rivojlanib, kengayib bormoqda. Ular faoliyatida yuzaga kelgan dolzarb masalalar yil davomida davlatimiz rahbarining doimiy e’tiborida bo‘lgani esa O‘zbekistonda tadbirkorlar nechog‘liq qadrlanayotganini anglatadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “tayanch” so‘ziga “narsani ko‘tarib, tik turishi uchun xizmat qiladigan vosita, ustun, tirgak, tirgovuch”, degan ta’riflar berilgan. Chindan ham qachonki bir narsaga ishonilsagina, unga suyaniladi, tayaniladi. O‘zbekiston bugun tom ma’noda tadbirkorlarga ishonmoqda, suyanmoqda. Pirovardida soha vakillari katta kuch sifatida iqtisodiyot va jamiyatda o‘rnini tobora mustahkamlab olmoqda.

EZGU ISHLAR IZCHIL DAVOM ETADI

Prezidentimiz Yangi yil bayrami tabrigida inson qadrini ulug‘lash, aholi manfaatlarini ta’minlash, buning uchun kuchli iqtisodiyot barpo etish bizning asosiy vazifamiz ekanini ta’kidlab, shu maqsadda 2024-yilni mamlakatimizda “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb e’lon qildi.

Joriy yilda iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik va xususiy mulk uchun keng imkoniyatlar yaratish yanada kuchaytiriladi. Ilm-fan, innovatsiya, IT kabi sohalarni, “yashil” va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga e’tibor kuchayadi.

2024-yil O‘zbekistonda jadal ishchanlik kayfiyati bilan boshlandi. Joylarda yangi tashabbuslar ro‘yobga chiqarilishi barobarida, yangi vazifalar, yangi rejalar belgilab olinmoqda. Iqtisodiyotda barqaror rivojlanishni ta’minlashning yangi choralari ko‘rilmoqda. Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning huquqiy asoslari yanada takomillashtirilyapti.

Maqola tayyorlanish jarayonida mavzuga doir yana bir yangilik e’tiborimizni tortdi. Gap shundaki, tadbirkorlik subyektlari bilan o‘tkazilgan muloqotlarda bildirilgan fikrlar hamda keng jamoatchilikning takliflari chuqur tahlil qilingan holda Prezidentimizning “Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish sohasida davlat nazorati mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad qonunga itoatkor tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash, yashirin iqtisodiyotni repressiv yo‘l bilan emas, balki ularni rag‘batlantirish mexanizmlari va amaliy ko‘mak berish orqali ko‘lamini kamaytirish, jazo choralarini kuchaytirishdan voz kechgan holda insofli tadbirkorni himoya qilish, ularga haqiqiy ko‘makchi bo‘lish hamda biznes rivojiga to‘siq bo‘luvchi korrupsion omillarga barham berishdir.

O‘tgan yili Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba, jamoatchilik fikri asosida qabul qilingan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida eng avvalgi vazifalardan biri sifatida barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish belgilangan.

Kechagi, bugungi va yaqin yillarda amalga oshirilgan, qilinayotgan va bajarilajak ishlar kelgusi taraqqiyotimizni belgilab beradigan ushbu strategiyadagi vazifalar ijrosini ta’minlashga xizmat qiladi. Zotan, bu vazifalarning butun mazmun-mohiyati erkin va farovon, qudratli yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgandir.

Tadbirkorlik

“AJOYIB XAYOLPARAST” QAYTDI

Endi uning rejalari sarob emas, hayotda amalga oshmoqda

“Ajoyib xayolparast” filmini ko‘rgandirsiz. Kinodagi qiziq epizodlarni so‘zlab, film qahramonlari aytgan gaplarni hayotimizda hazil ohangida qo‘llab kelamiz, kuzatamiz, zavqlanamiz.

Filmni yodga olarkanmiz, ko‘z oldimizga sertashvish, sodda, o‘jar, xayolparast qishloq shifokori Hasan gavdalanadi. Uning beg‘uborligi va quyon boqib, boyib, ketish yo‘lidagi soddadillarcha urinishi filmda o‘ta tabiiy va ishonarli ochib berilganini bilasiz.

Termizlik Kamol Jumayev ham shaharning qoq o‘rtasida quyonchilikni tashkil etish borasidagi orzu-rejalari haqida qo‘ni-qo‘shnilariga so‘z ochganida, ko‘pchilik o‘sha filmni eslatib, rosa kulgandi.

U, aslida, Termiz shahridagi Gulira’no mahallasida yashaydi. Keyingi yillardagi o‘zgarishlar va insonlar hayotidagi yaxshilanishlarni ko‘z o‘ngida ko‘rib, ijtimoiy tarmoqdan kuzatib, beixtiyor quyonchilik bo‘yicha tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagi tug‘ildi. Aniq va puxta biznes reja tuzdi, bozorni o‘rgandi, ma’lumot to‘pladi, tajriba orttirdi.

O‘z hovlisida quyonchilik faoliyatini yo‘lga qo‘ydi. Har joyda bo‘lgani kabi “bekor qilibsiz” deguvchilar ham topildi, ammo ishni epladi. Uning mo‘jazgina hovlisida hozir yuzga yaqin quyon parvarishlanmoqda. Tadbirkorning aytishicha, 5 nasldagi zotdor jonivorlar turiga qarab go‘shti, mo‘ynasi, tiviti va terisi uchun boqilyapti. Parvarishlanayotgan quyonlarning bozori ham chaqqon. Bozorga chiqarishga ehtiyoj yo‘q, shu yerning o‘zidan xarid qilib ketishmoqda.

— Avvaliga kam mablag‘ sarflab, yaxshi daromad olsa bo‘ladigan tarmoqlar haqida o‘ylardim. Hammasi birdek qiyin tuyulardi. Daromadli yo‘nalishlardan biri — quyonchilik degan xulosaga keldim. Ishni tizimli qilsangiz, hammasini joyiga qo‘yarkansiz. Quyon parvarishlashni ijtimoiy tarmoqdan o‘rgandim, — deydi yosh tadbirkor K.Jumayev. — Quyonchilikni tashkil etish tajribasini ham internetdan o‘rganganman. To‘g‘risi, bizda hali ham quyonchilikda eski usullardan foydalanib kelinadi. Siz soha ichiga kirib boraversangiz, jahon tajribasini o‘rgansangiz, quyonni ko‘paytirishda bizda oddiy qoidalarga ham amal qilinmasligini sezasiz. Kelajakda quyonchilik bo‘yicha yaxshi mutaxassis bo‘lib yetishib, tajribalarni ommalashtirish bo‘yicha rejalarim ham bor.

Surxondaryoda quyonchilik bilan shug‘ullanuvchilar soni, rosti, anchagina kam.

Kelajakda bu sohani yanada rivojlantirib, klaster darajasiga chiqarishni niyat qilayotgan yosh tadbirkor Kamol Jumayevning aytishicha, quyon boquvchi yetishtirgan mahsulotini qayerga sotishini avvaldan rejalashtira olishi, ozuqa yechimini topishda ham muammoga duch kelmasligi kerak. E’tiborli tomoni, Gulira’no mahallasida allaqachon uning ortidan ergashuvchi yosh shogirdlari bor.

Shunisi aniqki, yuqorida faoliyati haqida so‘z yuritganimiz kabi tadbirkorlarning dardu tashvishi, muammolari bilan ishlash bo‘yicha aniq mexanizmlar yaratilgan. Buning natijasi o‘laroq shundoqqina yonginamizda, ko‘z o‘ngimizda ishsiz fuqarolar bankdan mahalladagi hokim yordamchisi vositasida imtiyozli kredit olib, ish boshlamoqda.

Ularning hayoti bugun yaxshilangan va buning ortidan o‘zi ham turli yo‘nalishlarda yangi ish o‘rinlari yaratib, iqtisodiyot rivojiga hissa qo‘shayotgan insonlar safi ortib borayotir.

Inson qadrini ulug‘lash, mamlakat aholisi manfaatlarini ta’minlash, buning uchun esa kuchli iqtisodiyotni barpo etish bugungi kunda davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri. Shu bois, davlatimiz rahbari tomonidan yillarga nom berilishi zamirida ham ayni jihatlarni kuzatish mumkin.

2024-yilning “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb nomlanishi o‘tgan yildagi ishlarning nafaqat uzviy davomi, balki insonlar hayotini yanada yaxshilashga yangi resurslarni jalb qilish imkoniyatini yaratadi.

Hokim yordamchisining uyma-uy yurib, fuqarolarni xatlovdan o‘tkazish jarayonida novvoylik ortidan oila tebratib kelayotgan Siroj Mardoyev avvaliga ishonib-ishonmay, tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish borasida murojaat qilgandi, kredit muammosi tezda hal etilgani ortidan ishga bo‘lgan ishtiyoqi yanada ortdi.

Bu kasbda o‘n besh yillik tajribaga ega bo‘lsa-da, ilk bor o‘zining novvoyxonasini ochdi. Ikki kishini ish bilan ta’minladi.

— Ikki yil avval ishsizlar ro‘yxatida edim. Mehnat daftarcham ham yuritilmas edi. Bugun o‘zim, turmush o‘rtog‘im va ikkita xodimimizning ham bandligi ta’minlangan, — deydi tadbirkor Siroj Mardoyev.

Qayerdaki inson qadri ustuvor bo‘lar ekan, o‘sha yurtda rivojlanish ham, farovonlik ham bo‘ladi. Bugun so‘z yuritgan yurtdoshlarimiz faoliyati haqiqatdan uzoq emas, balki real voqelikdir.

Siz ham yuqoridagi qahramonlarimiz singari o‘z tadbirkorlik faoliyatingizni boshlab, ko‘pchilikka ibrat bo‘layotgan insonlar safida bo‘lishingiz mumkin. Chunki inson qadri yuksalayotgan jamiyatda har kim o‘z iste’dodi, qobiliyati va mehnati ortidan aziz bo‘laveradi.

Sarvar TO‘RAYEV,
jurnalist

Burch

YUKSAK AXLOQIY FAZILATLARGA EGA YOSHLAR YOT G‘OYALAR DOMIGA TUSHIB QOLMAYDI

Vahobjon RAJAPOV,
tarix fanlari nomzodi

Boshlanishi 1-betda

Bugungi kun tahlillari shuni ko‘rsatmoqdaki, ayrim talaba yoshlar orasida ma’naviy cheklanganlik, dunyoqarashning torligi tufayli yot g‘oyalarga aldanish, odob me’yorlariga rioya qilmaslik, so‘z va ish orasidagi tafovut, milliy g‘ururning sustligi kabi noxush holatlar uchrab turibdi. Ularni ilmiy asosda o‘rganib, bartaraf qilish har birimizning vazifamizdir.

Yil yakuni arafasida o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida madaniyat, san’at, ma’naviyat va ma’rifat sohalarini isloh qilish, bu borada natijadorlikni oshirish bo‘yicha qator ustuvor vazifalar belgilab olindi. Bu yo‘nalishdagi ishlarni yanada jadallashtirish uchun 2024-yildan boshlab har yili 100 milliard so‘mdan mablag‘ ajratilishi ta’kidlandi.

Jumladan, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali, asosan, chetdan, ba’zan mamlakatimizning o‘zida ham Konstitutsiya va qonunlarimizga zid pozitsiyalar ilgari surilayotgani, jumladan, diniy e’tiqod niqobi ostida yoshlarni ma’rifatga emas, jaholatga undash holatlari paydo bo‘layotgani, bunday vaziyatda jamiyatimizda jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashishni kuchaytirish, hushyorlik va ogohlikni yanada oshirish lozimligi ta’kidlandi. Davlatimiz rahbari ziyolilarimizni tinchlik va bag‘rikenglik muhitini mustahkamlashda yanada faol va o‘zlarining ma’naviy fazilatlari bilan boshqalarga o‘rnak bo‘lishga chaqirdi.

Yig‘ilishda o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish xususida alohida to‘xtalib o‘tildi. O‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchilariga ham xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan boshqa fan o‘qituvchilaridan kam bo‘lmagan miqdorda qo‘shimcha haq to‘lanishi hamda milliy sertifikatga ega bo‘lgan mazkur fan o‘qituvchilariga kelgusi o‘quv yilidan boshlab, 50 foiz ustama to‘lanishi qayd etildi. O‘zbek tili bo‘yicha xalqaro fan olimpiadalari g‘olib va sovrindorlari pul mukofoti bilan taqdirlanishi hamda oliygohlarga o‘zbek tili filologiyasi yo‘nalishi bo‘yicha davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinishi belgilandi. Bunday o‘zgarishlar pedagogika yo‘nalishidagi universitet va institutlar zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi, albatta.

Ma’naviyat, ma’rifat va inson tushunchalari bir butun holdagina muayyan mazmunga ega bo‘ladi. Ma’naviyat yo‘q joyda ma’lum maqsadga qaratilgan insoniy faoliyat ham bo‘lmaydi, insonlar jamoasining birligi — jamiyat ham bo‘lmaydi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar taqdiri pirovard natijada ma’naviy-ma’rifiy ishlar darajasiga bog‘liq muhim hayotiy masaladir. Sababi, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning asosiy vazifasi yuksak axloqiy fazilatlarni o‘zida mujassam etgan komil insonni tarbiyalashdan iborat. Ma’rifatparvar alloma Abdulla Avloniy inson ma’naviy yuksalishida ilmning ahamiyati xususida shunday yozgan edi: “Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkur qilur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur”.

Prezidentimizning 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tasarrufiga o‘tkazildi va pedagogika yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv dasturlarni ishlab chiqishda yetakchi oliy ta’lim muassasasi etib belgilandi.

O‘tgan yili 21-iyun kuni esa “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi. Bu hujjat mamlakatimizda yangi avlod pedagoglarini tayyorlashda muhim huquqiy asos bo‘ladi. Qaror o‘ta dolzarb va o‘zaro uzviy bog‘liq 3 ta vazifa — zamonaviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko‘tarish, pedagogika sohasida ta’lim, ilm-fan va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash masalalarini samarali hal etishni ko‘zda tutadi.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida tahsil olayotgan 2-4-bosqich talabalarining malakaviy amaliyotini Toshkent shahridagi 1 ta Prezident, 3 ta ixtisoslashtirilgan, 234 ta umumta’lim maktabi, 6 ta maxsus maktab-internat, 26 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti, 3 ta akademik litsey va 5 ta professional ta’lim muassasasida tashkil etish bo‘yicha shartnomalar tuzildi.

Hakim Yo‘ldoshev olgan suratlar.

Bugun davr pedagogik ta’lim oldiga ham o‘ta dolzarb va murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. Maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirish, innovatsion salohiyatga ega o‘qituvchilar tayyorlash, ularning kasbiy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish, ilg‘or xorijiy tajribalarga asoslangan yangi o‘qitish usullarini ishlab chiqish va o‘qituvchilarning metodik salohiyatini uzluksiz oshirib borish shular jumlasidan.

Hozirgi axborot texnologiyalari rivojlangan asrda yoshlarni chetdan kirib kelayotgan salbiy axborot xurujlaridan himoya qilish, ularni har tomonlama sog‘lom va barkamol qilib tarbiyalashda milliy ma’naviyat va ma’rifatning o‘rni beqiyos. Buning uchun, avvalo, oila va bog‘chadan boshlab, maktab, kollej, oliy o‘quv yurtlarida doimiy ravishda tushuntirish ishlarini olib borishimiz zarur.

Universitetimizda ham talaba yoshlarni yurtimiz hamda dunyoda ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy, xususan, yoshlar hayotiga oid voqealar, yangiliklar va qiziqarli ma’lumotlardan tezkor xabardor qilib, ularning ma’naviy-ma’rifiy qarashlarini yuksaltirish, vaqtini mazmunli o‘tkazishga mo‘ljallangan qator ishlar amalga oshirilmoqda. 2023-2024-o‘quv yilidan boshlab talabalar uchun universitetning “Pedagog” gazetasi qoshida “Yosh pedagog” jurnali hamda ijodkor talabalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Chashma” badiiy-adabiy to‘garagi tashkil etildi. Fakultetlararo “Talabalar teatr studiyalari” tanlovi, “Yil talabasi”, “Quvnoqlar va zukkolar”, “Talabalar ligasi”, “Kitobxonlar” tanlovlari muntazam o‘tkazilib, yil davomida faol bo‘lgan, ma’naviy-ma’rifiy ishlar targ‘ibotida ishtirok etgan 7 mingdan ziyod talaba taqdirlandi.

Bugungidek shiddatkor zamonda faqat bilimdon, yuksak aql-zakovat va keng dunyoqarashga ega kishilargina jamiyatimiz taraqqiyotini tezlashtira oladi. O‘zbekistonimizning rivojlangan davlatlar safidan munosib o‘rin egallashini ta’minlashga qodir bo‘ladi. Shunday ekan, ma’naviyat va ma’rifat faqat shu soha xodimlari yoki o‘qituvchiyu murabbiylarninggina ishi emas, balki barchaning, o‘zini Vatan taqdiriga daxldor deb bilgan har bir yurtdoshimizning burchi bo‘lishi lozim. Mana shu tamoyilga rioya qilsak, hech qanday kuch ma’naviyatimizga raxna sola olmaydi.

> **Bugun davr pedagogik ta’lim oldiga ham o‘ta dolzarb va murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. Maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirish, innovatsion salohiyatga ega o‘qituvchilar tayyorlash, ularning kasbiy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish, ilg‘or xorijiy tajribalarga asoslangan yangi o‘qitish usullarini ishlab chiqish va o‘qituvchilarning metodik salohiyatini uzluksiz oshirib borish shular jumlasidan.**

Tashabbus

KECHAGI ORZUM — BUGUN KASBIM

Asli taqdir bitigidan nariga o‘tib bo‘lmas ekan. Hayot chekiga shunday yashash tarzi bitilgan ekan, na iloj? Bunga sabr qilishdan o‘zga chora yo‘q. Aravachada o‘tirgancha o‘y-xayollarining oxirini topolmay, boshi qotgan Dilsora telefon qo‘ng‘irog‘idan sergak tortdi. Ertalabdan yo‘qlagan kim bo‘ldi? Aslida, unga ko‘p ham qo‘ng‘iroq bo‘lavermaydi. Birinchi guruh nogironi bo‘lgani bois, asosiy vaqti uyda o‘tadi. Gohida aravachasiga o‘tirgancha hovli aylanganini aytmasa, deyarli ko‘chaga ham chiqmaydi. Zerikkan paytlari biror ish bilan mashg‘ul bo‘lay desa, hunar o‘rganishga imkoni bo‘lmagan. Qo‘lidan ish kelmaydi. Ba’zida televizordagi yangiliklarda o‘ziga o‘xshash kishilarning harakat qilib, daromad topayotganini, hatto kattagina tadbirkor bo‘lgani haqida eshitib qoladi. Bundan bir oz ruhlanib, nimadir kasb bilan shug‘ullanishga bel bog‘lab qoladi-yu, lekin shashti ko‘p o‘tmay so‘nadi. Axir ishlash uchun sharoit kerak. Kimdir yordam berishi lozim.

— Yaxshimisiz, Dilsoramisiz? — telefonning narigi tomonidan berilgan ayol kishining jarangdor savoli uni shoshiltirdi.

— Ha, ha, Dilsoraman. Kimsiz?

— Mahallangizdagi yangi tikuv korxonasi rahbari Zarifaman. Sizni ishga taklif qilmoqchi edim.

— Ishga taklif qilmoqchi edim?.. Kechirasiz, adashdingiz, shekilli?

— Yo‘q, nega adashaman. Siz mahallamizdagi Dilsoramisiz? Bilaman, xijolat chekmang. Bizda sizga mos ish bor. Tikuvchilik. Bir joyda o‘tirib ishlaysiz. Maosh ham beramiz. Siz bizga keraksiz.

— Yaxshi-ku, lekin tikuvchilikni bilmaymanda.

— Buyog‘ini o‘ylamang. Siz bugunoq korxonamizga keling, qolganini shu yerda gaplashib olamiz.

Qisqa muloqot uning yuzlarida tabassum paydo qildi. Bir oz hayajonlanib, o‘z-o‘ziga ishonqiramadi. Nahotki ishga taklif qilishayotgan bo‘lsa? Demak, uni so‘roqlashyaptimi, u ham shu jamiyat uchun nimadir qilishi mumkin ekan. Shukrki, aravachada yursa-da, qo‘llari bilan barcha ishni bajara oladi. Ayniqsa, o‘tirib bajaradigan bichish-tikish ishlarini qoyillatadi. Faqatgina o‘rganib olsa bo‘lgani. Tezda taraddudlanib, hamrohi bilan aytilgan manzil tomon yo‘l oldi.

HARAKAT QILGAN KAM BO‘LMAS

Dilsora tortinibgina tikuv sexiga kirib borarkan, u yerdagi ishchilarni ko‘rib, ancha ko‘ngli xotirjam bo‘ldi. Boisi, o‘zi kabi imkoniyati cheklangan yana uch-to‘rt xotin-qiz mehnat qilayotgandi. Sex rahbari bir ozdan so‘ng kelishini aytdi. U fursatdan foydalanish uchun imkoniyati cheklangan tikuvchi opalar oldiga borib, ular bilan suhbatlashishga harakat qildi.

Bu yerda ishlovchilarning aksariyati imkoniyati cheklangan xotin-qizlar ekan. Shu sabab uni ham ishga taklif qilishibdi. Maoshi ham yaxshigina ekan. Zarifa opaning o‘zi shu yerda ish o‘rgatib, mehnat qilishga imkoniyat yaratib berar emish. Albatta, bu hunar sirlarini o‘rgatishsa, eplab ketishini xayolidan kechirdi u.

Shunday ham bo‘ldi. Dilsora Kamolova tirishqoqligi bois, tikuvchilik kasbini yaxshi o‘zlashtirdi. Qisqa fursatda mohir chevarga aylandi. O‘ziga berilgan vazifani astoydil bajarib, ko‘pchilikka namuna bo‘lishga intila boshladi.

— Rostini aytsam, shu paytga qadar biror joyda ishlab, mehnatim evaziga daromad topaman, deb o‘ylamagandim, — deydi Dilsora Kamolova. — O‘z qo‘llarim bilan shunday chiroyli liboslar tikib, ko‘pchilikka nafim tegayotganidan mamnunman. Har kuni ertalab ko‘p qatori ishga shoshilaman. Bu yerda ahil jamoa bilan birga vaqt o‘tganini ham sezmay qolamiz. Kun davomida buyurtmalarni bajarib, korxonamiz rivojiga hissa qo‘shamiz. Odamlar orasida ishlash, to‘g‘risi, hayotga qiziqishimni yanada oshirdi. Bir paytlar uyda yolg‘iz qolib, tushkunlikda o‘tirgan paytlarim ortda qoldi. Shu yurt uchun kerakli inson ekanimni his qildim.

IZLAGAN IMKON TOPAR

Zarifa Qurbonnazarova shu paytgacha o‘zi mustaqil chevarlik qilardi. Tanish-bilishlardan tushgan buyurtmalarni bajarib, daromad topardi. Ammo keyinchalik ayrim ishlarga bir o‘zining vaqti yetmay qoldi. Shu orada toshkentlik tadbirkor hamkorlik taklif qildi. Mehnatiga yaxshigina pul to‘lashini eshitib, o‘ylanib qoldi. Yo‘q desa, boshqasini topishi aniq. Rozi bo‘lsa, buncha ishni bir o‘zi eplashiga ko‘zi yetmaydi. Nima bo‘lsa bo‘ldi, deya tavakkaliga hamkorlikka rozilik bildirdi. Erkaklarning tayyor bichilgan qishki kiyimini tikib, jo‘natish kerak edi. Tezda ishga kirishib, qo‘lidan chevarlik keladigan dugonalarini ishga soldi. Aytilgan muddatda buyurtmani tayyorlab, jo‘natishga ham ulgurdi. Ammo yana bir muddat o‘tgach, navbatdagi ishni qanday qilib oxiriga yetkazish haqida bosh qotirardi. Bu tomonda haftada ikki-uch bor Koson tumani “Ishga marhamat” monomarkaziga borib, hunar o‘rganuvchilarga saboq ham berib kelishi kerak. Izlagan imkon topar, deganlaridek, tajribali ishbilarmonlar maslahati bilan bunga ham yo‘l topdi.

O‘tgan yil may oyida “So‘g‘diyona bonu tekstil” mas’uliyati cheklangan jamiyatini tashkil etib, Koson tumani Quyibog‘ mahallasidagi hovlisida sex ochdi. O‘n nafar xotin-qizni ishga taklif qildi. Ular orasida imkoniyati cheklanganlar ham bor edi. Dastlab bir oylik o‘qish tashkil etib, sexning o‘zida ularga tikuvchilik sirlarini o‘rgatib bordi. Shu orada buyurtmalarni ham shogirdlari yordamida bajardi. Korxonasidagilarni to‘liq chevarlikka o‘rgatib olgach, yirik buyurtmalarni bajaradigan bo‘ldi.

— Ancha yillardan buyon tadbirkor bo‘lish orzusida yurardim, — deydi Z.Qurbonnazarova. — Bir oz ikkilanish borligi sabab bu ishni orqaga surib kelayotgandim. Lekin harakat qilsa, intilsa, bajarib ketish mumkinligini bugun hayotiy tajribamda ko‘rdim. O‘zim monomarkazda ham ustozlik qilaman. U yerga turli yoshdagi kasb o‘rganuvchilar keladi. Bir kuni imkoniyati cheklangan kishi keldi, hunar o‘rganmoqchi ekan. Biror korxonaga ishga qabul qilishmasada, o‘zi mustaqil ishlay olishini aytdi. Uning intilishlarini, qiziqishlarini ko‘rib, kelgusida tadbirkor bo‘lsam, imkoniyati cheklanganlarni ham ish bilan ta’minlayman, deya niyat qilgandim. Bugun orzum amalga oshdi. Seximiz katta yo‘l yoqasida. Tikuvchilarimizning kelib-ketishi uchun juda qulay. Ayniqsa, nogironligi borlar uchun muammo bo‘lmaydi. Kun davomida ishlashiga, hordiq chiqarishiga sharoitlar yaratilgan.

Ayni paytda oyiga yigirma million so‘mdan ortiq daromad topayotgan Zarifa opa kelgusida ishini yanada kengaytirish harakatida. Bir qator yangi loyihalarni amalga oshirib, qo‘shimcha ish o‘rinlari ochishni maqsad qilgan. E’tiborlisi, hududdagi imkoniyati cheklanganlarni o‘zi o‘qitib, bandligini ta’minlashga bel bog‘lagan.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Yaqinda Respublika kardiologiya va endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari shifokorlari Sharof Rashidov tumanida aholini bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tkazdi.

“Mahallamizga poytaxtlik shifokorlar keldi”

Aholiga kerakli tibbiy maslahatlar berish bilan birga, sog‘lom turmush tarzi va to‘g‘ri ovqatlanish hamda jismoniy faollik har qanday kasallik, jumladan, yurak va qand kasalliklarining oldini olishning asosiy sharti ekani tushuntirildi. Shuningdek, Qo‘rg‘ontepa qishlog‘ida yashovchi 4-guruhga kirgan bemorlar uy sharoitida tekshirilib, ularga tegishli tavsiyalar berildi.

Mana shunday tibbiy ko‘riklar, aholi bilan ochiq muloqotlar sabab tibbiyot sohasidagi ijobiy o‘zgarishlarni har bir yurtdoshimiz o‘z hayotida, turmush tarzida his etmoqda. Buni Sharof Rashidov tumanidagi Yangiobod mahallasida yashovchi Xadicha Salomovaning fikr-mulohazalaridan ham bilsa bo‘ladi.

— Bir oydan buyon yuragimda og‘riq sezardim, — deydi u. — Tumanimizdagi shifokorga ko‘ringan edim. Ba’zi muolajalar tayinlab, chuqurroq tekshiruvdan o‘tishim uchun viloyat kardiologiya shifoxonasiga borishimni maslahat berdi. Ro‘zg‘or yumushlari bilan bo‘lib, viloyat shifoxonasiga borishga ham imkon topa olmayotgan edim. Kecha nevaram tumanimiz shifoxonasiga Toshkentdan do‘xtirlar kelib, bemorlarni bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tkazayotganini aytib qoldi. Bugun barcha ishlarimni yig‘ishtirib, tibbiy ko‘rikka keldim. Barcha tekshiruvdan o‘tdim. Yaratganga shukr, jiddiy kasallik chiqmadi. Shifokor kasbimni so‘radi. 35 yil maktabda boshlang‘ich sinflarga dars berganimni aytdim. “Asablaringiz ozgina charchagan, bir kurs davolanib chiqsangiz, hammasi yaxshi bo‘ladi. Sizdek nuroniylarimiz uchun sanatoriylarga bepul yo‘llanmalar berilyapti, shundan foydalaning”, dedi. Darhaqiqat, shifokorning so‘zi ham shifo. Mana, og‘riq sezmayapman.

Mamlakatimiz tibbiyot tizimidagi bu kabi o‘zgarishlar xalqimiz tansihatlikda va xotirjam yashashi garovi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Farhod NE’MATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Islohotlar samarasi

Xoqonlar davlat amaldorlarini o‘z xalqiga xizmat qilishga undagan. Masalan, bitiklarda “turk eli uchun tinkasi quriguncha kurashish, turk xalqi uchun tunlari uxlamasdan, kunduzlari ishsiz o‘tirmaslik shart”ligi ta’kidlanadi. Bugun ham yurtimizda aynan shu tamoyil asosida kuchli xalqchil siyosat yuritilmoqda.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 24-yanvar, 17-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Jaloliddin Manguberdi izidan

TUPROQ — O‘ZLIK ILDIZI

YOXUD QUDRATLI XOQON BOBOLARIMIZGA BESHIK BO‘LGAN ZAMIN

Boshlanishi 1-betda

Ayni vaqtda Jaloliddin Manguberdi so‘nggi qo‘nim topgan joyda uning ramziy maqbarasini qurish boshlangan. O‘tgan yilning 10-19-oktabr kunlari Mo‘g‘ulistonga ekspeditsiya tashkil etildi. Mazkur ilmiy-ma’rifiy ekspeditsiya yetakchisi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Xorazm viloyati bo‘limi rahbari, Manguberdi fondi raisi Bekzod ABDIRIMOV bilan suhbatimiz shu haqida bo‘ldi.

— Suhbatimizni Vazirlar Mahkamasining yuqoridagi farmoyishida belgilangan vazifalar ijrosi haqidagi ma’lumotlardan boshlasak.

— Farmoyishda Jaloliddin Manguberdi izidan turli mamlakatlarga ilmiy-ma’rifiy ekspeditsiyalar uyushtirish, kutubxona, muzeylar, arxiv va qo‘lyozmalar fondlarida saqlanayotgan nodir asarlar, qo‘lyozmalar, tarixiy hujjatlarni o‘rganish, ulardan nusxa olish, sarkarda hayoti va jasorati bilan bog‘liq tarixiy, badiiy-ma’rifiy asarlar, badiiy va hujjatli filmlar, seriallar yaratish singari qator topshiriq va vazifalar nazarda tutilgan.

2021-2022-yillarda Turkiya, Qozog‘iston, Mo‘g‘uliston kabi davlatlarga aynan mazkur hujjat ijrosi doirasida safarlar uyushtirdik. Jumladan, 2023-yil yakunida Mo‘g‘ulistonda tadqiqotlar olib bordik.

O‘zbekiston va Mo‘g‘uliston qadimdan turkiy xalqlar yashagan, buyuk davlatlar barpo etgan qudratli xoqon bobolarimizga beshik zamindir. O‘zbek tilining ajdodi — qadimiy turkiyda ilk yozma manbalar aynan mana shu yerda bitilgan. Buyuk turk xoqonligi davrida Sharq va G‘arb yanada yaqin ijtimoiy-madaniy aloqalarga kirishgan. Bu jarayonda Buyuk ipak yo‘lining ahamiyati nihoyatda katta bo‘lgan. Savdogarlarimiz nafaqat O‘rxun vodiysi, balki Xitoyda ham erkin savdo-sotiq qilgan. Alp Er To‘nga zamonidan boshlab, turkiylar muqaddas vatanni goh sharqdagi, goh g‘arbdagi dushmandan himoya qilgan edi. Ularning janggohlardagi hayqiriqlari va nidolari bugungi kungacha Kultegin, Bilga xoqon, To‘nyuquq bitiktoshlari orqali sado berib turibdi. Bitiktoshlarda vatan manfaati yo‘lida xizmat qilish, mamlakatning mustahkam, osoyishta bo‘lishi uchun kurash bosh maqsad ekani aytiladi.

— Mo‘g‘ulistondagi qadimiy turkiy yozma manbalar qaysi jihatlari bilan bizga aloqador va ularda nima haqida so‘z boradi?

— Bu bitiklar yozilgan qadimiy turkiy til o‘zbek tiliga juda yaqindir. Turkologlar fikricha, bu tilning zamonaviy o‘zbek tili va o‘zbek tili shevalari bilan bir xilligi darajasi 59 foiz. Hech bir turkiy til yoki mahalliy mo‘g‘ul tili bu darajada yaqin emas. Bitiktoshlar tili zamonaviy o‘zbekchaga shu darajada yaqinki, ularda yozilgan chaqiriq va murojaatlar ham bizga qarata aytilgandek. Yana bitiktoshlarda ogohlikka chorlovchi fikrlar ham bor. Masalan, xoqonlikning eng kuchli raqibi Tabg‘ach tomonidan bo‘ladigan

xavfdan xalqni ogohlantiruvchi “Tabg‘achning shirin so‘zi, yumshoq ipagi bo‘ladi”, ya’ni ularga uchib, aldanib qolma, mazmunidagi murojaatlar mavjud. To‘nyuquq bitiktoshida

erk, mustaqillik uchun kurashgan butun turk xalqining armonu iztiroblari bayon qilinadi, erksizlik xalqni og‘ir fojialarga, hatto butunlay yo‘qlikka yuz tutishiga olib kelishidan ogohlantiriladi: “Xoningni qo‘yib taslim bo‘lding. Taslim bo‘lgani uchun Tangri “O‘l!” degan, shekilli, turk xalqi o‘ldi, tugadi, yo‘q bo‘ldi. Turk xalqi yerida biror urug‘ qolmadi. Chakalak orasida qolgani to‘planib, yetti yuz nafar bo‘ldi. O‘z xonini qo‘yib, Tabg‘ach xoqoniga sajda qilgani Tangriga ham xush kelmadi. Ularni har tomonga tarqatib yubordi”.

Umuman olganda, bitiktoshlar mazmunida Buyuk turk xoqonlari mamlakati — “Mangu el”ni birlikka, uni himoya qilishga da’vati yotadi. Shuningdek, Vatanni, tuproqni himoya qilish mafkura darajasiga chiqqanini Metexonning “Tuproq — o‘zlik ildizi, uni qanday birovga berayin”, degan so‘zlaridan ham anglash mumkin. Vatan mudofaasi g‘oyasi, jasur va mard bo‘lish bilan bog‘liq qarashlari ularning Ko‘ktangriga e’tiqodi bilan mustahkamlangan.

— Xoqon bobolarimiz bitiklari aynan biz — avlodlarga qaratilgan, dedingiz, aytingchi, ular bu bilan nima demoqchi va bu so‘zlarning dolzarbligi qay darajada, deb o‘ylaysiz?

— Bu buyuk sarkardalar xalqni birlashtirib, davlati qudratini yuksaltirgandi. Xoqonlar davlat amaldorlarini o‘z xalqiga xizmat qilishga undagan. Masalan, bitiklarda “turk eli uchun tinkasi quriguncha kurashish, turk xalqi uchun tunlari uxlamasdan, kunduzlari ishsiz o‘tirmaslik shart”ligi ta’kidlanadi. Bugun ham yurtimizda aynan shu tamoyil asosida kuchli xalqchil siyosat yuritilmoqda.

Yaqinda Turkiy davlatlar tashkilotining Qozog‘iston poytaxti Ostona shahrida o‘tkazilgan yig‘ilishida Prezidentimiz ma’ruzasini Bilga xoqonning “Ey turkiy elim, o‘zligingga qayt, o‘zingni angla — yanada yuksalgaysan!” degan so‘zlari bilan boshladi. Bu butun turkiy xalqlarda katta qiziqish va yuqori kayfiyat bilan kutib olindi. Chunki bugun mintaqamiz atrofida yuz berayotgan turli nizolar, geosiyosiy kuchlar muvozanati o‘zgargani Markaziy Osiyo va turkiy xalqlarni yanada jipslashishga undamoqda.

Ilmiy ishim Jaloliddin Manguberdi tarixiga bag‘ishlangan. Shu bois, chet ellarda bir necha bor ilmiy safarlarda bo‘ldim. Ayniqsa, buyuk sarkarda xotirasini abadiylashtirish, yoshlarimizni vatanparvar qilib tarbiyalashda uning timsolidan foydalanish bo‘yicha tashabbuslar va hukumatimizning qo‘llab-quvvatlovi ilmiy ishlarimizga dastak bo‘ldi. Mo‘g‘ulistonga amalga oshirilgan ilmiy ekspeditsiyaning asosiy maqsadi ham yurtimizdagi va u yerdagi tadqiqotchilarning ilmiy hamkorligini yo‘lga qo‘yishdan iborat edi.

— Mo‘g‘uliston deganda, ko‘z oldimizga keng yaylovlar, chorvadorlar o‘tovlari, uyur-uyur yilqilar gavdalanadi. Shuningdek, kitoblarda o‘qib, rasmlarda ko‘rganimiz Chingizxonning dashtdagi katta haykali ham esimizga tushadi. U yerdagi eng nufuzli o‘quv dargoh, mashhur kutubxona va ajoyibotlarga boy muzeylar haqidagi ma’lumotlar ham gazetxonlarga birday qiziq...

— U yerdagi eng mashhur oliy dargoh Mo‘g‘uliston Milliy universiteti. Ta’lim muassasasi 1940-yil tashkil qilingan bo‘lib, 6 ta yo‘nalishga, 3 ta milliy institutga ega va mamlakatdagi eng yirik intellektual markaz hisoblanadi. Universitetda 1200 dan ortiq professor-o‘qituvchi faoliyat yuritadi, 22 ming talaba tahsil oladi. Milliy universitet bilan tanishuvimiz Turkologiya instituti direktori Anxabayor Danuu boshchiligida kutubxonadan boshlandi. Mamlakatning ikkinchi raqamli kutubxonasi esa AQSHning Stenford universiteti kutubxonasi standartlari asosida shakllantirilgan. Kutubxona 7 qavatli binodan iborat va unda 500 mingga yaqin kitob fondi, 10 mingdan ortiq elektron kitob, o‘nlab o‘quv xonalari, bitta imkoniyati cheklanganlar uchun o‘quv xonasi, noyob qo‘lyozmalar fondi va arxivi, kutubxona muzeyi, eski va qadimiy kitoblarni restavratsiya qilish bo‘limlari mavjud.

Kutubxona faoliyati bilan tanishilgandan so‘ng uning direktori, professor Ganbaatar Seren xonim bilan ham muzokaralar o‘tkazildi. Muzokaralar davomida universitet kutubxonasi elektron fondi bilan yurtimizdagi Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Urganch davlat universiteti kutubxonalarining elektron bazalarini umumlashtirish, har ikki tomondan ham erkin foydalanish imkoniyatlari o‘rganildi va qator kelishuvlarni amalga oshirish belgilab qo‘yildi. Safar davomida Mo‘g‘uliston Milliy kutubxonasida ham bo‘ldik. Kutubxona 3,5 milliondan ortiq kitob fondiga ega, ularning 400 mingdan ziyodi qo‘lyozma. Safarimiz chog‘ida yurtimizdagi universitetlarimiz kutubxonalarining Mo‘g‘uliston Milliy kutubxonasi bilan bog‘lanish imkoniyatlari ham o‘rganildi. Kutubxonada saqlanayotgan ona Vatanimiz tarixiga oid adabiyotlar haqida ma’lumotlar to‘plandi.

Albatta, Mo‘g‘ulistondagi muzeylar faoliyati bilan tanishib, ularda yurtimiz tarixiga oid ma’lumotlarni o‘rganish, videomateriallar tayyorlashni ham maqsad qilib olgandik. Rejalarimiz ko‘ngildagidek amalga oshdi. Ulan-Batordan 66 kilometr janubi-g‘arbda joylashgan To‘nyuquq bitiktoshi, Chingizxonning 44 metrli haykali ostidagi Chingizxon kichik muzeyi, Ulan-Batordan 400 kilometr olisdagi Kultegin va Bilga xoqon bitiktoshlari, Xorxorum (qadimgi Qoraqurum) muzeylariga bordik. Ularning faoliyati, yurtimiz tarixiga oid juda ko‘plab qiziqarli ma’lumotlarga ega bo‘ldik, maxsus videoreportajlar tayyorladik.

— Safar chog‘ida ilk bor o‘zbek-mo‘g‘ul tarixchilarining ilmiy konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Bu xalqaro anjuman o‘zbek olimlariga nima berdi?

— “Xorazmshohlar va mo‘g‘ullar aloqalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya chindan ham o‘zbek-mo‘g‘ul tarixchilarining birinchi shunday formatdagi tadbiri edi. O‘zbekiston va Mo‘g‘uliston tarixining eng murakkab davri aynan XIII asrning birinchi yarmidir. Bu Chingizxon boshchiligida katta qo‘shin yurtimizga bostirib kirgan, unga qarshi Jaloliddin Manguberdi boshchiligidagi vatanparvarlarning yurt ozodligi yo‘lidagi kurashuv davridir. Shu nuqtayi nazardan, biz Chingizxonni bosqinchi deymiz, mo‘g‘ullar esa eng buyuk qahramon sifatida biladi. Shuning uchun konferensiya oldidan ma’ruzalardagi fikrlar u yoki bu olimning o‘z fikri, uni ma’qullash yoki ma’qullamaslik har kimning o‘z ishi ekani kelishib olindi. Haqiqatan, o‘zbek va mo‘g‘ul olimlarining bu mavzudagi ilmiy munozarasini tasavvur qilish qiyin edi. Anjumanda yurtimizdan 5 nafar, mo‘g‘ulistonlik 8 nafar tadqiqotchi ma’ruza qildi. Ularda Chingizxon avlodlarining islom dinini qabul qilishi, Oltin O‘rda ilm-fanida xorazmlik allomalarning roli, Chig‘atoy ulusi va Oltin O‘rda munosabatlari, Jaloliddin Manguberdining mardonavor ozodlik kurashi mavzulariga to‘xtalib o‘tildi.

Men Chingizxon davrida Turkistondan majburiy olib kelingan asirlar va ularning Xitoy va Mo‘g‘uliston taraqqiyotidagi o‘rni, ularning avlodlari taqdiri mavzusida ma’ruza qildim. Turkistondan olib ketilgan asirlar Mo‘g‘ulistonda mahalliy aholiga dehqonchilik sir-asrorlarini o‘rgatgan, Qoraqurum shahri qurilishida xitoylik ustalar bilan birga ishlagan, ularning avlodlari esa mo‘g‘ul davlatchiligi taraqqiyotida katta o‘rin tutgan. Ular nafaqat tashqi qiyofasi, balki boshqa mahalliy aholiga nisbatan mehnatsevarligi, jasurligi bilan ajralib turgan.

Yaqinda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining davlatimiz rahbari raisligida o‘tkazilgan yig‘ilishida ko‘tarilgan 9 ta ustuvor yo‘nalishdan biri xalqaro maydonda o‘zbek madaniy diplomatiyasini rivojlantirish, boy madaniy merosimizni xalqimizga va xorijiy sayyohlarga keng tanishtirish bilan bog‘liq. Mo‘g‘ulistonga tashkillashtirilgan ilmiy-ma’rifiy ekspeditsiya ham ikki davlat va xalqlarni bir-biriga tanishtirish, yaqinlashtirish, o‘zaro ilmiy-madaniy aloqalar rivojiga katta hissa qo‘shishiga ishonaman.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Gulichehra DURDIYEVA suhbatlashdi.

Qadriyat

EL ADABIYOTI

uning sharafidan darak beruvchi vosita

Ulug‘bek SATTOROV,
filologiya fanlari doktori

Odamzod hayoti boshlangan davrdan hozirgacha rivojdan to‘xtamayotgan xalq og‘zaki ijodi boy ma’naviy merosdir. U har bir millat, mamlakat qadriyatlarini, madaniyati, urf-odati va barcha axloq normalarini o‘zida mujassam qiladi, shu bois, madaniy boylik sifatida qadrlanadi.

Yurtimizda ham nomoddiy madaniy meros namunalarini to‘plash, nashr qilish, bu boradagi tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar muntazam davom etgan. O‘zbekistonda bunday xazinani ilmiy jihatdan o‘rganish, ularni arxiv bazalarida saqlash ishlariga XX asrning o‘rtalaridan kirishilgan. Bu sohada ilk ekspeditsiyalar tashkil qilish, ularni yozib olish mashhur olim G‘ozi Yunusov, Hodi Zarif tomonidan boshlangani, shuningdek, To‘ra Mirzayev, Buyuk Karimiy, Muzayyana Alaviya, Zubayda Husainova, Komiljon Imomov, Omonulla Madayev, Mamatqul Jo‘rayev, Shomirza Turdimov, Jabbor Eshonqulov va boshqa folklorshunos olimlarning fidokorona xizmatlari bilan bugunga qadar davom etib kelayotganini e’tirof etish lozim.

Akademik To‘ra Mirzayev G‘ozi Yunusovni birinchi o‘zbek folklorshunosi deya e’tirof etadi. Aslida, ijodkor va donishmand ajdodlarimizning qadriyatlarimiz gultoji sanalgan merosimiz namunalarini asrab-avaylash, ularni to‘plash, ilmiy jarayonga jalb etish g‘oyasi jadid vatandoshlarimiz tomonidan ilgari surilgan. Xususan, Abdurauf Fitrat “El adabiyoti” maqolasida bu soha milliy qadriyatlarimizni o‘rganishda naqadar zarur ekanini ta’kidlagan.

Tarixiy manbalardan ma’lumki, Fitrat G‘ozi Yunusov va Hodi Zarifga “Alpomish” dostonining yozma variantini shakllantirish topshirig‘ini bergani dostonning og‘zaki ijrochilikdan yozma manbalarga kiritilishi, ilmiy, nazariy jihatdan o‘rganilishiga asos yaratdi. Hozir “Alpomish” dostonining 40 dan, “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlarning 60 dan ortiq varianti borligini ilm ahli tasdiqlagan. Agar jadidlarimiz qatag‘onga uchramaganida ulkan ma’naviy jasorat natijalari bundan-da yuksakroq pog‘onada bo‘lar edi.

Bugun soha yanada qo‘llab-quvvatlanayotgani millatimiz fidoyilarining ma’rifatni yuksaltirish borasidagi ishlarining davomi, deyish mumkin. 2023-yilning 22-dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining davlatimiz rahbari raisligida o‘tkazilgan yig‘ilishida yuqorida aytilgan ishlar salmog‘ini oshirish yo‘llari aniq belgilab berildi.

Nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash va uni kelajak avlodga meros sifatida qoldirish bo‘yicha O‘zbekiston dunyodagi yetakchi davlatlardan biridir. Xususan, ustoz-shogirdlik an’analari, baxshichilik san’ati, maqom ijrochiligi borasida hukumatning alohida qarorlari qabul qilingani, xalqaro ko‘rik-tanlov, konferensiyalar tizimli ravishda tashkil etilayotgani, nodir meros namunalarini avlodlarga yetkazish, dunyo miqyosiga olib chiqish masalalari hal etilayotgani katta ko‘rsatkich. Shuningdek, Prezidentning o‘tgan yil 25-dekabrda qabul qilingan “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan keng qamrovli masalalar ham fikrimizni tasdiqlaydi.

“O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” 100 jildligini tayyorlash va nashr qilish esa bu boradagi ishlarning amaldagi yana bir ifodasidir. Zero, donishmand ajdodlarimiz Mahmud Koshg‘ariy, Abu Bakr ibn Ja’far Narshaxiy, Mahmud Zamaxshariy, Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko‘plab allomalarimiz o‘z ijodlarida xalqimizning boy tafakkuri merosidan oqilona foydalanib, xalq hurmat-e’tiborini qozongan. Jadidlarimizdan tashqari ko‘plab xorijlik olimlar, o‘lkashunoslar ham turli davrlarda xalqimiz og‘zaki ijodini o‘rganib, turli tillarda nashr qilgan.

Xalq dostonlari, qissalari, qo‘shiqlari, ertak, matal, masal, maqol, afsona, rivoyat, naql, miniatyura san’ati va boshqa epik namunalar ajdodlarimizning yashash tarzi, madaniyati, qadriyatlari, udumlari, axloqiy, ilmiy, tafakkuriy, diniy va ruhiy qarashlaridan darak beruvchi vositalardir. Bugun bunday noyob va nodir manbalarni kengroq o‘rganish, ular haqidagi ma’lumotlarni to‘plash, nashr qilish, jahon tajribasiga tayanib sohani raqamlashtirish, katalogini yaratish, axborot texnologiyalarini joriy etish maqsadga muvofiq. Mavjud muammolarni milliy va xalqaro maydonda tizimga solish sohadagi milliy manfaatlarni himoya qilish, xalqaro va mahalliy ilmiy-amaliy konferensiyalar, ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etish, kelajak avlodga yetkazish masalalarini hal etadi.

YUNESKO reprezentativ ro‘yxatiga kiritilgan nomoddiy meros namunalari — “Shashmaqom”, Katta ashula, Navro‘z, osh, adras to‘qish madaniyati va an’analari kabi milliy darajadagi nodirliklar xalqaro miqyosda ommalashtirilayotgan ekan, ularni yanada rivojlantirish borasidagi faoliyatimizni yangi bosqichga ko‘tarib, jahon aro keng tarqalishiga erishishimiz lozim. Qadimiy an’analar saqlanib qolgan hududlarda turli darajadagi ijodiy ekspeditsiyalar tashkil etib, xalqning nodir merosi bo‘lgan og‘zaki ijod namunalarini, an’ana va marosimlarni bundan-da mo‘lroq to‘plash va kelgusi avlodlarga meros qoldirish asosiy vazifalarimizdan.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 227.
8848 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Jonibek Alijonov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zA yakuni — 22:00 Topshirildi — 22:05